

ELEKTROTEXNIKA SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH VA EKSPORT HAJMI YANADA ORTADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda bu yo‘nalishda izchil islohotlar amalga oshirilib, zamonaviy quvvatlar barpo etildi, ishlab chiqarish va eksport hajmlari ortib bormoqda. Masalan, joriy yilning 9 oyida tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 16,3 foizga o‘shib, 34 trillion so‘mga yetdi. Eksport 970 million dollarni tashkil qildi.

Shu bilan birga, sohada hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘p. Xususan, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish, misni chuqur qayta ishlash va eksportni diversifikatsiya qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ayni vaqtda mis mahsulotlari eksportining atigi 60 foizi yuqori qo‘shilgan qiymatli tovarlar ulushiga to‘g‘ri kelyapti.

Taqdimotda mamlakatimizda chuqur qayta ishlashni rag‘batlantirish, bu borada mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashkilotlar ko‘rib chiqildi. Jumladan, misni xarid qilishda chegirma taqdim etish, kredit foizlarining 5 foizdan yuqori qismini davlat tomonidan qoplash, soliqlar va bojxona to‘lovlarini bo‘yicha yengilliklar berish rejalashtirilgan.

Tarmoqda an‘anaviy turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan birga yuqori texnologik turlarini o‘zlashtirish, jumladan, elektronika va yarim o‘tkazgichlar sohasiga kirib borish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Yangi loyihalar hisobiga kelgusi yillarda yurtimizda mis ishlab chiqarish hajmi 250 ming tonnaga, 2030-yilga borib esa 500 ming tonnaga yetishi kutilmoqda. Mutasaddilar ushbu xomashyo bazasidan foydalanib,

uning negizida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalar to‘g‘risida axborot berdi. Serverlar, sanoat elektronikasi, konditsionerlar, quyosh panellari, nazorat-o‘lchov va avtomatika vositalari, smart-kartalar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish shular jumlasidan. Umuman, bu yo‘nalishda 2,1 milliard dollarlik 157 ta loyiha shakllantirilgan bo‘lib, ular orqali 14,5 ming yangi ish o‘rni yaratiladi.

Taqdimotda hududlardagi elektrotexnika texnoparklarining faoliyati ham ko‘rib chiqildi.

Ayni paytda milliy mahsulotlarimizni xalqaro bozorlarga chiqarish imkoniyatlari kengaymoqda. O‘zbekiston standartlar instituti Xalqaro elektrotexnika komissiyasi baholash sxemasiga a‘zo organ sifatida qabul qilindi. Bu mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar sertifikatlarining 53 davlatda tan olinishini ta‘minlaydi.

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi yevropalik hamkorlar bilan muvofiqlikni baholash tizimini yo‘lga qo‘ymoqda. Bu orqali O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga Yevroittifoq talablariga moslikni tasdiqlovchi “CE” belgisi beriladi. Bu esa Yevropaga eksport hajmini kamida ikki barobar oshirish imkonini yaratadi.

Davlatimiz rahbari rejalashtirilgan chora-tadbirlar va loyihalar ijrosini jadallashtirish, eksportning o‘shish sur‘atlarini saqlab qolib, yangi bozorlarga chiqish bo‘yicha aniq topshiriqlar berdi.

O‘ZA

FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISHDA YANGICHA MEXANIZMLAR JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish tizimini takomillashtirishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda aholi xavfsizligini ta‘minlash hukumatning asosiy vazifalaridan biridir. Turli xatarlar paydo bo‘layotgan hozirgi zamonda favqulodda vaziyatlar organlari tizimini ham takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda.

Sohada 30 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lsa-da, haligacha favqulodda vaziyatlar muhofazasi bo‘yicha kompleks dastur yo‘q. Bundan 16 yil oldin qabul qilingan “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun hozirgi kun talablariga javob bermaydi.

Shu bois, favqulodda vaziyatlarni oldindan baholab, tezkor va proaktiv ishlaydigan tizim yaratish vazifasi qo‘yilgan.

Taqdimotda mutasaddilar shu boradagi tahlil natijalari, mavjud muammolar va takliflarini bayon qildi.

Hozir favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlari asosan davlat idoralarida amalga oshirilyapti. Lekin bunday holatlarning 70 foizdan ortig‘i aholi xonadonlarida nozox, muddati o‘tgan gaz va elektr jihozlardan foydalanish, xavfsizlik madaniyatiga rioya qilmaslik oqibatida yuzaga kelyapti.

Shuning uchun tizim ishini mahallalarda tashkil etib, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfsizlik madaniyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar bilan har bir mahalla, har bir ko‘cha va xonadonni qamrab olish zarurligi ta‘kidlandi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN TOJIKISTONDA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 9-10-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Dushanbe shahrida o‘tadigan “Markaziy Osiyo — Rossiya” formatidagi ikkinchi sammit va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etadi.

Bo‘ljak tadbirlar kun tartibidan ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, shu jumladan, siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarida qo‘shma loyihalarini ilgari surish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, energetika va

infratuzilma sohalarida kooperatsiya qilish, faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish masalalari o‘rin olgan.

Yetakchilar xalqaro kun tartibi va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashning dolzarb jihatlarini ham muhokama qiladilar.

Sammitlar yakunida amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan qator qo‘shma hujjatlar va qarorlar qabul qilinishi ko‘zda tutilgan.

O‘ZA



O‘ZBEKISTON – MDH: KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUHIM PLATFORMA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu yil 9-10-oktabr kunlari Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tadigan MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi va “Markaziy Osiyo — Rossiya” muloqoti shaklidagi navbatdagi sammitda ishtirok etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston MDH mamlakatlari bilan ko‘p tomonlama munosabatlarni faol rivojlantirib kelmoqda. Bunday hamkorlik aloqalarining yanada yaxshilanishiga Hamdo‘stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va

iqtisodiy jihatdan bog‘langanligina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar, mintaqaviy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimiz taqdirining mushtarakligi ham asos bo‘layotir.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTONNING KONSTRUKTIV TASHQI SIYOSATI TOTNING NUFUZINI YUKSALTIRISHGA, O‘ZARO MUNOSABATLARNI CHUQURLASHTIRISHGA XIZMAT QILMOQDA

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTING GABALA SAMMITIDAGI TASHABBUSLARI XORIIYI EKSPERTLAR NIGOHIDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-oktabr kuni Ozarbayjonning Gabala shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdagi sammitida ishtirok etdi.

Sammitda mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmi sifatida TDTning ahamiyati ortib borayotganini aks ettiruvchi mustahkam kun tartibi taqdim etildi. O‘zbekiston Prezidenti avvalgi uchrashuvlarda bo‘lgani kabi savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va ekologik sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga

qaratilgan qator pragmatik va mazmunli tashabbuslarni ilgari surdi.

Bu tashabbuslar O‘zbekistonning o‘zaro sherikligini rivojlantirish, umumiy manfaatlarni ilgari surish, tarixiy va madaniy ildizlarga bog‘liq bo‘lgan xalqlar hamjihatligini mustahkamlash borasidagi strategik intilishini yana bir bor tasdiqladi. Bunday yondashuv xalqaro ekspertlar va tahlil doiralari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanib, yuksak baholanayotir.

Davomi 2-betda



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI VA SHAXSIY MAS’ULIYAT – MUVAFFAQIYAT SARI TASHLANGAN QADAM

Millat rivoji, yurt taraqqiyoti va inson kamoloti intizom va mas’uliyatdan boshlanadi. Asrlar davomida buyuk ajdodlarimiz ham aynan mana shu ikki fazilatni hayot tarzi, davlat boshqaruvi va ilm-ma’rifat asosi sifatida ko‘rgan.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda har bir inson, jamoa va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri belgilangan rejalarni o‘z vaqtida va aniq bajarish, ya’ni ijro intizomini ta‘minlash hamda shaxsiy mas’uliyat tuyg‘usini yuksak



darajaga olib chiqishdir. Bu ikki omil nafaqat ish yuritish samaradorligini oshiradi, balki muvaffaqiyat sari tashlangan asosiy qadam ham hisoblanadi.

Davomi 4-betda

MILLIY SANOATIMIZDA YANGI NAFAS, YANGI TARAQQIYOT

Islohotlar amalda



Navoiy kon-metallurgiya kombinati nafaqat ma‘dan qazib olish va qayta ishlashda, balki texnologik innovatsiyalar, raqamlashtirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda ham peshqadam kompaniyaga aylanib bormoqda. Yangi O‘zbekiston qo‘yasi asosida kechayotgan keng ko‘lamli islohotlar samarasi o‘laroq, milliy sanoatimizga yangi nafas, yangicha yondashuvlar hamda yangi taraqqiyot kirib keldi.

Sanoat — iqtisodiyot poydevori. Yurtimiz sanoatidagi yuqori o‘shish sur‘atlari, yangi texnologiyalar joriy qilinishi, zamonaviy korxonalar ochilishi ish o‘rinlari yaratibgina qolmay, eksport salohiyatini oshirishga, ichki bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to‘ldirishga ham xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda mahalliy xomashyoni qayta ishlashga katta e‘tibor qaratilyapti va

yaxshi natijalarga erishilmoqda. Bular nafaqat iqtisodiy o‘shish, balki xalq farovonligi uchun ham muhim omildir.

So‘nggi 8-9 yilda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot 2 karra oshib, o‘tgan yili 115 milliard dollarga, eksport hajmi 26 milliard dollarga yetdi, qariyb 130 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etildi. Joriy yil yakunida yalpi ichki mahsulotimiz 130

milliard dollar bo‘lishi kutilyapti. Iqtisodiy o‘shish va xorijiy investitsiyalar oqimi ko‘payishi islohotlarga sodiqlik, qulay biznes muhiti hamda xalqaro hamkor tashkilotlarning yuksak ishonchi natijasi, albatta.

Yurtimizda kon-metallurgiya sohasini rivojlantirishga muhim dastur va puxta o‘ylangan investitsion loyihalar hamda innovatsion texnologiyalar izchil tatbiq

NUKUSDAGI LOYIHA BEMORLARGA UMID BAG‘ISHLADI ENDI SIL KASALLIGINI ANIQLASH VA DAVOLASH OSON

— Olti oydan buyon silga qarshi davolanyapman. Hozir o‘zimni ancha yaxshi his qilib, ko‘chaga chiqib, hayotdan zavq olishni boshladim, — deydi 29 yoshli Zuhra. — Tuzalishimga volontyorlar va maslahatchilar katta yordam berdi. Ayniqsa, psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashlari kuchli dalda bo‘ldi. Boshida kelajak haqida hatto o‘ylamasdim. Men uchun hayot tugagandek edi. Lekin tajribali psixologlarning doimiy e‘tibori, parvarishi tufayli kelajakka ishonch bilan qaray boshladim. Hozir o‘zimni yaxshi his qilyapman, dori-darmon ichishni davom ettiryapman. Muhimi, ishonch va umidim mustahkamlandi.

Avval sil kasalligi bilan og‘rikan bemorning butun oilasi aziyat chekardi. Shifoxonada yillab davolanishga majbur edi.

1998-yil Qoraqalpog‘istonda sil kasalligi yuqori darajada tarqalgani tufayli Nukusda silga qarshi kurash loyihasi boshlandi. Loyiha Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining DOTS (Kuzatuv ostidagi qisqa muddatli davolash) strategiyasi asosida amalga oshirildi.

Keyinchalik loyiha shaxsga yo‘naltirilgan, keng qamrovli yondashuvga aylanib, doriga sezuvchan va dorilarga chidamli sil turlarini qamrab oldi. Dastur minglab bemorlar va ularning oila a‘zolari uchun davolanish imkoniyatini yaratib, ularga umid bag‘ishladi. Nihoyat qariyb 30-yil davom etgan bu dastur muvaffaqiyatli yakunlandi.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON – MDH: KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUHIM PLATFORMA

Boshlanishi 1-betda

MDH davlatlari bilan oliy va yuqori darajadagi tashriflar almashinuvi ham amalga oshirilmoqda. Bu jihat ko‘p tomonlama muloqot va hamkorlikni, Hamdo‘stlik makonida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilayapti.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-2024-yillarda MDH Davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishlarida ishtiroki yakunlari bo‘yicha imzolangan hujjatlarning o‘z vaqtida va to‘liq miqyosda amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida “yo‘l xaritalari” qabul qilindi. Qayd etish kerakki, davlatimiz rahbari o‘tgan sammitlarda MDH mamlakatlari taraqqiyotiga va xalqlarimiz farovonligiga xizmat qilayotgan 100 dan ortiq tashabbuslarni ilgari surdi. O‘zbekiston 2020-yilda MDHga raislik ham qildi.

O‘zbekiston so‘nggi sakkiz yilda imzolangan 24 ta ko‘p tomonlama hujjat, MDH oliy organlarining 22 ta qarori va 20 dan ortiq sohaviy hamkorlik organlariga qo‘shilgan.

Qayd etish joiziki, mamlakatimiz MDH doirasida barcha sohalarida hamkorlikning ijobiy dinamikasini saqlab kelmogda. Xususan, ushbu birlashma makonida O‘zbekiston uchun ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik asosiy yo‘nalishlar qatorida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimiz tashqi savdo aylanmasining 35,1 foizi MDH davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Jumladan, 2024-yilda respublikaning Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan o‘zaro savdosi 23,1 milliard dollarni tashkil qildi. O‘zbekiston hududlarida Hamdo‘stlik davlatlari kapitali ishtirokida 5,5 ming kompaniya muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Hududlararo savdoni rag‘batlantirish maqsadida MDH davlatlarida 130 dan ortiq maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatmoqda, chegaraviy savdo zonalarini ham tashkil etilmogda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 8-oktabr kuni Rossiya poytaxti Moskva shahrida o‘tgan sammitdagi nutqida va 25-dekabr kuni Sankt-Peterburgdagi MDH Davlat rahbarlarining norasmiy uchrashuvida hamkorlikning iqtisodiy yo‘nalishida birgalikdagi faoliyatni kuchaytirish ustuvor vazifa ekanini qayd etdi.

Bitim salohiyatidan to‘liq foydalanish, tovarlar va xizmatlar harakati yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish, savdo tartib-qoidalari va yuk tashishni raqamlashtirish, mintaqaviy hamkorlik loyihalarini faol jalb etish orqali kengaytirish taklif etildi.

Forumning ishbilarmonlik dasturiga ko‘ra, B2B formatida muzokaralar va uchrashuvlar tashkil etildi. Forum yakunlari bo‘yicha do‘stona munosabatlarni o‘rnatish, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga oid 10 dan ortiq hujjat, Hamdo‘stlikka a‘zo mamlakatlar hududlari o‘rtasida hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha muhim hujjatlar imzolandi.

Birinchi Innovatsion rivojlanish forumi ishtirokchilari esa zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishning dolzarb masalalarini ko‘rib chiqdi va istiqbolli innovatsion loyihalarni ilgari surish hamda tijoratlashtirish bo‘yicha MDHga a‘zo davlatlarning innovatsion hamkorlik bo‘yicha Davlatlararo dasturi imkoniyatlarini muhokama qildi.

Bundan tashqari, shu yil 7-8-avgust kunlari Samarqandda Hamdo‘stlik mamlakatlarida sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro forum tashkil etildi. Ikki kunlik forum davomida beshta sessiya o‘tkazildi va ularda sun‘iy intellekt sohasidagi dolzarb masalalar, yangi tendensiyalar, biznes uchrashuvlar, tajriba va innovatsion yechimlar almashinuvi, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi. Mazkur xalqaro forum MDH davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, umumiy siyosat va standartlarni muvofiqlashtirish, innovatsion yechimlarni birgalikda ishlab chiqish va yangi ilmiy-texnik istiqbolarni belgilash uchun muhim maydon vazifasini o‘tadi.

MDH makonida to‘laqonli erkin savdo zonasini shakllantirish va transport bo‘liqligini mustahkamlash muhim ekani hech kimga sir emas. O‘zbekiston ushbu jahdda ham mazkur tuzilmaga a‘zo davlatlar bilan ko‘p tomonlama, ham ikki tomonlama shakllarda hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratyapti.

MDH davlatlari va xalqlarini umumiy madaniy-tarixiy meros va ko‘plab gumanitar

“O‘zbekiston Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan zamonaviy tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishda ham yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan. MDH doirasida Terrorizmga qarshi kurash markazi tashkil etildi, u terrorizm va ekstremizmning boshqa ko‘rinishlariga qarshi kurashish sohasida ishtirokchi davlatlarning vakolatli organlarining o‘zaro hamkorligini muvofiqlashtirish bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan tarmoq organi hisoblanadi.

Savdo-iqtisodiy sohada MDHning asosiy yutug‘i sifatida o‘zaro savdoni kengaytirish, savdo munosabatlariidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan erkin savdo zonasi to‘g‘risidagi shartnoma imzolanganini urg‘ulash mumkin.

O‘zbekiston Hamdo‘stlik mamlakatlari bilan zamonaviy tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishda ham yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan. MDH doirasida Terrorizmga qarshi kurash markazi tashkil etildi, u terrorizm va ekstremizmning boshqa ko‘rinishlariga qarshi kurashish sohasida ishtirokchi davlatlarning vakolatli organlarining o‘zaro hamkorligini muvofiqlashtirish bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi ixtisoslashtirilgan tarmoq organi hisoblanadi.

2024-yilda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish doirasida MDHga a‘zo davlatlar hududidan o‘tadigan xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish va infratuzilmani optimallashtirish bo‘yicha Harakatlar rejasini, 2025-2027-yillargada mo‘ljallangan deradikalizatsiya sohasidagi hamkorlik dasturi va boshqa muhim hujjatlar qabul qilindi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari taklifi bilan Toshkent shahrida MDH mamlakatlari tahlil markazlarining “Uzoq muddatli hamkorlik uchun yangi kun tartibi” mavzusidagi xalqaro konferensiyada muhim taklif va tashabbuslar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, joriy yil aprel oyida poytaxtimiz Toshkent shahri MDH Iqtisodiy kengashi majlisi, Hamdo‘stlikka a‘zo davlatlar hududlararo birinchi forumi va birinchi Innovatsion rivojlanish forumini qabul qildi.

MDH Iqtisodiy kengashi majlisida ushbu tuzilmaga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka oid keng ko‘lamli masalalar ko‘rib chiqildi. Shuningdek, MDH organlarini moliyalashtirish, statistika, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va boshqa bir qator masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Birinchi Hamdo‘stlik hududlararo forumida jahon savdosidagi global jarayonlarni hisobga olgan holda, tashkilotga a‘zo mamlakatlarda savdo munosabatlarni rag‘batlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar, jumladan, MDH doirasida Erkin savdo hududi to‘g‘risidagi

rishtalar bog‘lab turgani muhim qimmatli manbadir. Bu omillar bugungi kunda Hamdo‘stlikning mustahkam va ishonchli tayanchlari bo‘lib qolmoqda. Madaniy aloqalar jadal rivojlanyapti. Mazkur tuzilma doirasida festivallar, konsertlar, turli yarmakalar, sport va boshqa tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinayapti.

Dushanbe sammiti doirasida, shuningdek, “Markaziy Osiyo — Rossiya” muloqot shaklidagi navbatdagi uchrashuv bo‘lib o‘tadi. Muloqot kun tartibida, birinchi navbatda, xalqaro va mintaqaviy muammolar, xavfsizlik, xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birini qo‘llab-quvvatlash, madaniy-gumanitar hamkorlik bo‘yicha qo‘shma tashabbuslar kabi dolzarb masalalarga e’tibor qaratiladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 14-oktabrda Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi “Markaziy Osiyo — Rossiya” sammitida ishtirok etgan edi. Unda “Markaziy Osiyo — Rossiya” formatidagi hamkorlik, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari mazkur formatdagi ilk uchrashuvda mintaqaviy sheriklikni kuchaytirish maqsadida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va madaniy-gumanitar sohalaridagi, atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi aloqalarni yanada yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surdi.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekistonning MDH faoliyatidagi ishtiroki va mazkur tuzilmaga a‘zo mamlakatlar bilan munosabatlari keng istiqbolga ega. Bunday o‘zaro aloqalar haqli ravishda yaxshi qo‘shinichlik, do‘stlik va o‘zaro ko‘mak namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bularning barchasi O‘zbekiston — MDH munosabatlarning kelajagiga nekinlik bilan qarash imkonini beradi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tadigan navbatdagi sammitlar va ularning yakunlari mamlakatlarimiz hamda xalqlarimiz farovonligi yo‘lida Hamdo‘stlik makonida ko‘p tomonlama munosabatlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

O‘ZBEKISTONNING KONSTRUKTIV TASHQI SIYOSATI TDTNING NUFUZINI YUKSALTIRISHGA, O‘ZARO MUNOSABATLARNI CHUQURLASHTIRISHGA XIZMAT QILMOQDA

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING GABALA SAMMITIDAGI TASHABBUSLARI XORIJIY EKSPERTLAR NIGOHIDA

Boshlanishi 1-betda

Xorijiy ekspertlarning ta’kidlashicha, O‘zbekiston turkiy dunyo ravnaqi yo‘lida o‘zaro hamkorlik va bir-birini qo‘llab-quvvatlashga izchil sodiqligini namoyish etishda davom etmoqda.

Ilgar VELIZADE, Ozarbayjonning taniqli siyosatshunosi va eksperti:



— Ma’lumki, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nufuzli xalqaro anjumanlardagi deyarli barcha chiqishlari alohida qiziqish va e’tiborni kuchaytirmoqda. Bu tasodif emas, chunki O‘zbekiston rahbari doimo mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli

hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy va mazmunli takliflarni bildiradi.

Gabalada bo‘lib o‘tgan TDTning 12-sammiti ham bundan mustasno bo‘lmadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashkilotni deklarativ hamkorlikdan amaliy, loyihaviy hamkorlikka o‘tkazishga qaratilgan qator aniq tashabbuslarni ilgari surdi. Asosiy takliflar qatorida “Yangi iqtisodiy imkoniyatlar makoni”ni yaratish, Turkiy davlatlarning sanoat alyansini tashkil etish, Toshkentda loyiha ofisi bilan Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha doimiy kengash tashkil etish, “Turkiy yashil yo‘laklar” tashabbusi, “Yashil transformatsiya” konsorsiumini ishga tushirish kabi tashabbuslar bor. Ushbu tashabbuslar sanoat kooperatsiyasini jadallashtirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, infratuzilma va “yashil” loyihalarni muvofiqlashtirish, transchegaraviy sarmoyaviy tashabbuslarni moliyalashtirish va amalga oshirish uchun ischi vositalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Taklif etilgan model mohiyatan “platforma” yondashuviga o‘tishdir. Shuningdek, ko‘p sonli bir-biriga zid bo‘lgan memorandum va deklaratsiyalar o‘rniga tashabbuslarni byudjetlar, jadvallar va belgilangan ijrochilar orqali tekzorkil bilan aniq loyihalarga aylantirish imkonini beradigan ischi mexanizm — platforma yaratiladi. Bunday yondashuv Toshkentning TDTni amaliy modernizatsiya qilishga sodiqligini tasdiqlaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yildan buyon muntazam ravishda aniq sohalarida tashabbuslarni ilgari surdi, bu O‘zbekistonda tashkilotni modernizatsiya qilishning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida belgilab kelmogda.



Viktor KIM, Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi Falsafa, siyosat va huquq instituti ilmiy xodimi:

— Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi sammiti ushbu tuzilma rivojiga yangi dinamik sur’at bag‘ishladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan nomi o‘zgartirilgach, TDTning rivojlanishi sifat jihatidan madaniy-ma’rifiy va iqtisodiy hamkorlik chegaralaridan yangi subyektni, jahon miqyosida muhim ishtirokchiga aylandi.

Tashkilotga a‘zo bo‘lmagan davlatlar bilan hamkorlik qilishning yangi “TDT+” formati allaqachon ko‘rib chiqilmogda. Davlat rahbarlarining nutqlarida 2021-yil noyabr oyida Istanbulda bo‘lib o‘tgan Davlat rahbarlarining VIII sammiti yakunlari bo‘yicha qabul qilingan “Turkiy dunyo nigohi — 2040” dasturida mustahkamlangan TDTning asosiy maqsadiga erishish yo‘lida birdamlik borligi ta’kidlandi.

O‘zbekistonning Gabaladagi faol pozitsiyasi ikki o‘zaro bog‘liq omil bilan belgilanadi. Birinchisi, O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari, ikkinchisi, ko‘p tomonlama, ya’ni TDT mamlakatlari bilan hamkorlikdir.

O‘ylaymanki, sammit natijalari TDT allaqachon turkiy dunyo taraqqiyotining yangi davriga ishonch bilan qadam qo‘yganiini ko‘rsatdi.



Omid RAHIMIY, xalqaro munosabatlar va Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha ekspert (Eron):

— Turkiy davlatlar tashkiloti barcha ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashayotgan samarali xalqaro tuzilmaga aylandi. Nazarimda, O‘zbekiston uchun bu tuzilmada ishtirok etish nafaqat iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlash, balki turkiy dunyo umumiy madaniy o‘zligini saqlash va rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi.

Bugungi kunda O‘zbekiston TDTni transformatsiya qilish jarayonining muhim ishtirokchilaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakat tashkilot doirasidagi integratsiya jarayonlarining yetakchi ishtirokchisi va tashabbuskori sifatida o‘z pozitsiyasini mustahkamlab bormogda.

Mutaxassislar fikricha, TDT imkoniyatlaridan yangi qo‘shma ishlab chiqarishlar va qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratish, ya’ni faqat xomashyo eksport qilish emas, balki mahsulotni mintaqaviy hamkorlik doirasida ishlab chiqarish, raqamli platformalarni rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjondagi TDT sammitida ishtirok etishi mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash yo‘lidagi dolzarb tashabbuslarni ilgari surishning navbatdagi qadam bo‘ldi. O‘zbekistonning faol va konstruktiv tashqi siyosati nafaqat Turkiy davlatlar tashkiloti nufuzini oshirishga, balki birodar xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch va umumiy kelajak haqidagi qarashlarga asoslangan munosabatlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Rashid Xon SAFI, Pokistonning “Dunyo” telekanali siyosiy sharhlovchisi:

— Markaziy Osiyo dinamikasini yaqindan kuzatib boradigan ekspert sifatida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonda bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotining 12-sammitidagi ishtirokini shunchaki navbatdagi diplomatik voqea sifatida emas, balki rasmiy Toshkentning yangi tashqi siyosat falsafasini aks ettiruvchi strategik qadam sifatida baholayman.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda shiorlar emas, balki aniq tashabbuslar bilan chiqayotgan turkiy dunyoning eng faol ishtirokchilaridan biriga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakat turkiy davlatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlariga yangi energiya kiritishga muvaffaq bo‘ldi.

Sammitning “Mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik” shiori ostida o‘tgan alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston bu yerda pragmatik yondashuvni taklif qilishga qodir davlat sifatida harakat qilmoqda: ishonchni mustahkamlash, kommunikatsiyalarni rivojlantirish va hududlarni bo‘lishdan ko‘ra ularni birlashtirishga ega.

Pokiston nuqtayi nazaridan, Toshkentning TDT doirasidagi faol pozitsiyasi yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Ishonchim komilki, turkiy davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishi tabiiy ravishda Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi yaqin hamkorlik uchun zamin yaratadi. Transafg‘on temir yo‘li loyihasi bu borada alohida ahamiyatga ega.

Men O‘zbekiston yetakchisining tashrifini deklarativ integratsiyadan real integratsiyaga o‘tish ramzi sifatida ko‘raman. Bu har bir mamlakat o‘ziga xos, ammo bir-birini to‘ldiruvchi ovzorga ega bo‘ladigan kuchli iqtisodiy va madaniy ko‘priklarni yaratishga qaratilgan harakatdir.



“Dunyo” AA

VASHINGTONDA “VATANDOSHLAR XALQARO BIZNES MARAFONI”NING NAVBATDAGI TADBIRI BO‘LIB O‘TDI

Mamlakatimiz elchixonasida O‘zbekiston Prezidentining AQSHga tashrifi doirasida start berilgan “Vatandoshlar xalqaro biznes marafoni”ning navbatdagi anjumani bo‘lib o‘tdi.

Biznes marafon tadbirlari yurtimiz elchixonasi, O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi va “M-Faktor” kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etildi.

Ma’ruzachi va ishtirokchilar o‘rtasida interaktiv formatda jonli muloqot o‘tkazilib, “portfel” sarmoyalar, onlayn savdo, ta’lim, axborot texnologiyalari hamda eksport-import operatsiyalarida AQSH standartlari hamda fitosanitar talablarga javob berish kabi dolzarb masalalarda tajriba almashildi.

Elchi Furqat Sidiqov o‘z nutqida O‘zbekiston Prezidentning Nyu-York shahriga tarixiy tashrifi haqida so‘zlab berdi. Xususan, davlatimiz rahbarining AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan o‘tkazgan uchrashuvi, vatandosh va talaba yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan mazmunli muloqotning asosiy jihatlarini haqida to‘xtaldi.

“M-Faktor” va “Dekos” kompaniyalari asoschilari Hasan va Husan Mamasaidovlar biznes marafonning asosiy maqsadi diaspora va O‘zbekiston o‘rtasida ko‘priklar vazifasini bajarish ekanini qayd etdi.

24-sentabr kuni Nyu-York shahrida O‘zbekiston Prezidenti shaxsan “Vatandoshlar biznes marafoni”ni ochib bergani va endilikda ushbu platforma mamlakatimizning xorijdagi barcha elchixonalarida navbat bilan o‘tkazilishi ma’lum qilindi.

“Fintellekt” moliya platformasi asoschisi Tamila Qurbonova mazkur biznes marafon amerikalik vatandoshlar orasida ilk bor o‘tkazilyotganini alohida ta’kidlab, bu tashabbus AQSHdagi barcha o‘zbek diasporasi vakillari ishtirokida turli shtatlarda davom ettirilishini taklif qildi.

U davlatimiz rahbarining AQSHdagi vatandosh tadbirkorlarga qaratayotgan

e’tiborini yuqori baholadi. “O‘zbekistonda biznes yuritish uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar Amerikadagi hamyurtlarimizning vatanga investitsiya kiritishini yanada jadallashtirmogda. Bugungi kunda O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlik, moliyaviy texnologiyalar, fintex soha, qimmatli qog‘ozlar, blokcheyn va raqamli savdo tizimlari jadal rivojlanyapti. Shuningdek, mamlakatimizda moliyaviy raqamlashtirish jarayonlari faol kechayotgani aholi orasida qo‘shimcha daromad mexanizmlari samaradorligini oshirishga xizmat qilayapti”, dedi Tamila Qurbonova.

“Thompson” xalqaro maktablar tarmog‘i asoschisi Shahzod Bahodirov ta’lim sohasidagi islohotlar va xususiy tashabbuslarning ahamiyati haqida to‘xtaldi. “AQSHdagi o‘zbek tadbirkorlarining xalqaro miqyosdagi tajribalarini O‘zbekistondagi ta’lim tizimi rivojiga yo‘naltirish muhim. Xalqaro ta’lim standartlariga mos xususiy maktablar ochish, zamonaviy o‘qitish usullarini

joriy qilish va o‘qituvchilar malakasini oshirish kladaj avlodni raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ta’lim sohasi bugungi kunda juda dolzarb va istiqbolli yo‘nalishga aylanmogda. Zero, aholining bilim olishga chanqoqligi tobora ortib bormogda”, dedi u.

Vashingtonda “Vatandoshlar xalqaro biznes marafoni” ochiq muloqot va amaliy takliflarga boy tarzda o‘tdi. Anjumanda tadbirkorlar moliya, ta’lim, axborot texnologiyalari va savdo sohalaridagi tajribalari bilan o‘troqlashib, hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini belgilab oldilar.

Shu bilan birga, ishtirokchilar “Amerikalik tadbirkor vatandoshlar” uyushmasini tuzishga kelishishdi.

“Vatandoshlar xalqaro biznes marafoni” doirasidagi konferensiyalar Nyu-Jersi va Florida shtatlarida ham muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

“Dunyo” AA

Vashington

Islohotlar amalda

MILLIY SANOATIMIZDA
YANGI NAFAS, YANGI TARAQQIYOTQuvondiq SANAQULOV,
“NKMK” AJ boshqaruvi
raisi — bosh direktori

Boshlanishi 1-betda

Investitsiya sharofati

Bugungi raqobat har bir korxonadan bozorda o‘z o‘mini saqlab qolish, ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni doimiy ravishda joriy etishni talab etmoqda. Shuningdek, jahon bozorida qimmatbaho metallarga talab o‘shib, oltin narxi tez sur‘atlarda oshib boryapti. Qimmatbaho metallar resurslari kamayib borishi tufayli ularni qazib olish ham qiyinlashyapti. Natijada oltin qazib oluvchi yirik kompaniyalar o‘rtasida ilmiy va texnologiy raqobat yanada kuchaydi.

Bundan tashqari, qimmatbaho metallarni qazib olish jarayonida ekologik talablar oshib boryapti. Mana shunday bir sharoitda Navoiy kon-metallurgiya kombinati uchun ilmiy izlanish, sohadagi ilg‘or tajribani o‘rganish hamda ishlab chiqarish jarayonlariga yangi innovatsion ishlarni joriy etish muhim vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimiz hududida qazilma boyliklar serob. O‘tgan asrning o‘rtalarida dunyoga mashhur geolog olimlar, akademiklar Habib Abdullayev va Ibrohim Hamrobayev hamda shogirdlari geologiya sohasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida yurtimizda yirik oltin konlari topildi. Bunga misol tariqasida Muruntov konini ko‘rsatish mumkin.

Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanida joylashgan Chormitan qishlog‘i hududidagi Zarmitan va G‘ujumsoy konlarida 4-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirilishi sohada katta burilish yasadi. Ayniqsa, keyingi sakkiz yilda Zarmitan sanoat hududida amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar kongra yangi ruh, yangi nafas olib keldi. Eng muhimi, hududga zamonaviy sanoat kirishi natijasida uning qiyofasi tubdan o‘zgardi, infratuzilma shakllandi, minglab yoshlar ishli, oilalar daromadli bo‘ldi.

Kombinat konlarida shart-sharoit turlicha hamda bir-biridan ma‘dan qatlamlari joylashgan chuqurligi, o‘lchamlari va tarkibi bilan farqlanadi. Zarmitan va G‘ujumsoy konlaridan ma‘dan shaxta usulida qazib olinadi. Yer ostidan ma‘dan qazib olish ancha murakkab

va ko‘p mablag‘ talab etadi. Yer osti konlari chuqurlashib borgan sari undan ma‘danlarni olib chiqish qiyinlashadi. Bu esa oldimizga ko‘plab muammolarni qo‘ymoqda.

Korxonamizning tajribali mutaxassislari va muhandislari ushbu muammolarni oldindan ko‘rib, ishlab chiqarish jarayonlari davomida vujudga kelayotgan masalalarni ilmiy va muhandislik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil etib boryapti. Natijada barcha ishlab chiqarish rejalarini har yili ortig‘i bilan uddalanoqda.

Bu yutuqlarga erishishimizda qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmini oshirish dasturi doirasida ishga tushirilayotgan investitsion loyihalar o‘z samarasini bermoqda. Shunday loyihalardan biri G‘ujumsoy konida ishga tushirilgan yangi shaxta bo‘ldi.

Konda xorijlik hamkorlarimiz bilan birinchi marta diametri 6 metr, chuqurligi 500 metr, yiliga 250 ming tonna ma‘danni yer yuzasiga ko‘tarish imkonini beruvchi 6-G yordamchi shaxtasi ishga tushirildi. Bu, avvalo, 500 metrgacha chuqurlikdan tog‘ jinslari qazib olish imkoniyatini berdi, shuningdek, xavfsizlik nuqtayi nazaridan kongra konchilarni tushirish, olib chiqish va zarur materiallarni yetkazib berishni takomillashtirdi.

Bundan tashqari, yer osti suvlarini yer yuzasiga chiqarish va kommunikatsiya tarmoqlari yotqizish hamda yer osti konining barcha sathlarini toza havo oqimi bilan ta‘minlash masalasini hal qildi. Konda yana bir loyiha — tog‘-kon mashina va mexanizmlarini siqilgan havo bilan ta‘minlashni yaxshilash maqsadida yangi kompressor sexi binosi foydalanishga topshirildi va energiyatejamkor hamda yuqori unumdor kompressorlar bilan jihozlandi.

Kon-metallurgiya sohasida suvdan keng foydalaniladi. Shu bois, suvni tejash muhim. Bu borada ham mutaxassislarning tomonidan yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Ma‘danni qayta ishlaydigan 4-gidrometallurgiya zavodi va yer osti qazib olish ishlarni texnik suv bilan ta‘minlash maqsadida G‘ujumsoy konidan chiqarilgan shaxta suvlarini tozalash uchun sig‘imi 1500 kubometr bo‘lgan suv yig‘ish va tindirish inshooti qurildi. Ushbu majmua suvni tejab, qayta ishlatish orqali mahsulot tannarxini ham pasaytirish imkoniyatini bermoqda. Shu bilan birga, u atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Zarmitan konida ham ma‘dan qazib olish quvvatlarini oshirish maqsadida yirik loyihalarga qo‘l urildi. 1000 metr yer qo‘riga tushish imkonini beruvchi 2S-6x2.5 markali energiyatejamkor shaxta ko‘tarish mashinasi o‘rnatildi. Balandligi 41 metr bo‘lgan shaxta kopyori qurilishi ham nihoyasiga yetkazildi.

Shaxta stvoli hududida uch bosqichli suv yig‘ish va tindirish havzasini qurish loyihasi doirasidagi ishlar natijasida 4-gidrometallurgiya zavodi va yer osti konini texnik suv bilan ta‘minlash yaxshilandi, mahsulot tannarxi kamayishi ta‘minlandi. Kon asosiy shaxtasining sanoat maydoni qayta yuklash punktida vagonetkalar sig‘imining 1,6 kubometrdan 2,2 kubometrgacha yetkazilishi shaxta stvolining yillik ish unumdorligini 30 ming tonnaga ko‘tarish imkonini berdi.

Bu kabi loyihalar, avvalo, ishlab chiqarish jarayonlari xavfsizligini ta‘minlash bilan birga

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

ma‘dan qazib olish hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Masalan, 2013-yilda Zarmitan konida 1,8 million kubometr kon massasi qazib olingan bo‘lsa, 2024-yilda qariyb 2 million kubometr, G‘ujumsoy konida 2013-yilda 152 ming kubometr kon massasi qazib olingan bo‘lsa, 2024-yilda 391,5 ming kubometr yetkazildi. Ma‘dan qazib olishning o‘shishi, o‘z navbatida, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ham ko‘paytirdi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatidagi o‘zgarishlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlamogda, balki yurtimizda sanoat sohasidagi innovatsion rivojlanishlarga mustahkam poydevor bo‘lmoqda.

Raqamli shaxta:
samaradorlik va xavfsizlik

Ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish bugungi dolzarb vazifalardan biri. Kombinatta 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan raqamli transformatsiya strategiyasi ishlab chiqilib, loyihalar bosqichma-bosqich ishga tushirilmoqda.

2024-yilda Zarmitan konida hamkorlar bilan “Yer osti texnikalari va ishchi-xodimlarning joylashuvi, ular bilan aloqa va ogohlantirish tizimini tatbiq etish” loyihasi doirasida 1,2 million AQSH dollarlik tizim ishga tushirildi. U quyi sathlarda harakatlanayotgan yer osti kon texnikasi va ishchi-xodimlarning joylashuv manzillarini tekzor kuzatish, ish vaqti unumdorligini oshirish va ishchi-xodimlar holati haqidagi ma‘lumotlarni kon dispetcherlik xizmati xonasi monitorlarida uzluksiz namoyish etish imkonini beradi.

Shuningdek, yer osti ishchi-xodimlarini simsiz telefon aloqasi yordamida tekzor boshqarish va ma‘lumotlar olish, favqulodda holatlarda ularni maxsus tizim va yoritish

fonarlari yordamida ogohlantirish, yer osti texnikasi harakati davomida ishchi-xodimlarga shikast yetkazilishining oldini olishga ko‘maklashadi.

Hozir yer osti konlarida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta‘minlash, xodimlar va texnika ish samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida “Qoraqot‘on yer osti konini raqamlashtirish” va “G‘ujumsoy yer osti konini raqamlashtirish” loyihalari bo‘yicha ishlanmoqda.

Loyihalarining asosiy maqsadi avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlab chiqish orqali ishchilarning xavfsiz mehnat faoliyatini ta‘minlash va ish samaradorligini oshirishdan iborat. Bu tizim orqali yer osti konlaridagi chang darajasi, metan va uglerod oksidi kabi gazlar konsentratsiyasi, ish joylaridagi harorat va namlik nazorat qilinadi. Xodimlarning xavfli hududlarga kirishi cheklanadi, ularning autentifikatsiyasi ta‘minlanadi va nazorat qilinadi. Shaxtadagi kon transportlari va xodimlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida xavfsiz oraliq masofa, favqulodda vaziyatlarda xodimlar va kon texnikasini qidirish va joylashuv koordinatlari aniqlanadi.

Zarmitan konida yer osti ishchi xodimlari va texnika joylashishini nazorat qilish, aloqa va ogohlantirish tizimi joriy etilishi tufayli baxtsiz hodisalar xavfini kamaytirishga erishildi. Ma‘dan qazib olish jarayonini boshqarish orqali samaradorlikni yaxshilash va texnikaning foydali ish ko‘effitsiyentini oshirish, to‘xtab qolish vaqtni qisqartirish, tezkirni me‘yorlash va buzilib qolishning oldini olishga muvaffaq bo‘lindi.

Shaxta stvollarini eng so‘nggi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida to‘liq raqamlashtirish. Barcha ishlar markaziy operatorlik puliti orqali boshqariladi. Ular yordamida ish jarayonlari doimiy kuzatilib, yuk

tashish aniq hisob-kitoblari orqali monitoring qilib boriladi. Bundan tashqari, ogohlantiruvchi signallar yordamida har qanday holatning oldini olish imkoniyati mavjud.

Kombinatda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan unumli foydalanish bo‘yicha loyihalar ham amalga oshirilmoqda. “Aqlli videotahlil — AI tizimini qo‘llagan holda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini hisobga olishning yagona axborot tizimi” joriy etilgan. Sun‘iy intellekt yordamida konchilarning shaxsiy himoya vositalarini qo‘llash nazoratga olingan hamda har bir xodimning xavfsizligi real vaqtda monitoring qilinmoqda. Bu esa mehnat muhofazasi va inson xavfsizligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

Markaziy Osiyoda
noyob loyiha

Keyingi yillarda yirik investitsion loyihalar, yangi quvvatlarni ishga tushirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, ilm-fan va sanoatni integratsiyalash tizimlari kechayotgani natijasida kombinat xorijiy kompaniyalar bilan raqobatlasha oladigan zamonaviy korxonaga aylandi. Sohadagi keskin raqobat bizdan doimo izlanishda bo‘lishni talab qilmoqda. Bu raqobatga ishlab chiqarish jarayonlariga yangi texnologiya va uskunalar hamda innovatsiya yutuqlarini joriy etish orqali javob berishimiz mumkin.

Hozirgi kunda Zarmitan va G‘ujumsoy konlari chuqurlashib, ma‘dan qazib olish murakkablashib bermoqda. Kombinatt muhandislari tomonidan muammo yechimi sifatida Zarmitan konida yuqori samaradorlikka va ishlab chiqarish quvvatiga ega zamonaviy skipli stvol qurish rejayi ishlab chiqildi.

Skipli stvol yer osti konlarida qazib olingan ma‘danni maxsus skiplar yordamida

yer yuziga ko‘tarish uchun loyihalashtirilgan vertikal yoki qiya shaxta stvolidir. Uning asosiy vazifasi ma‘danni tez, samarali va xavfsiz tashishdan iborat. An‘anaviy usullardan farqli o‘laroq, skipli stvollarda katta hajmli bunkerlar harakatlanadi. Bu skiplar po‘lat arqonlar yordamida maxsus ko‘tarish mashinalari bilan bog‘langan bo‘ladi. Qurilma har qanday chuqurlikda harakatlanib, yer qo‘ridan tog‘ massasini yuqoriga tez va xavfsiz olib chiqishni ta‘minlaydi.

Joriy yilda ushbu skipli shaxta stvoli ishga tushirildi. Mazkur shaxtaning chuqurligi 1000 metrga teng. Bu Markaziy Osiyoda yagonadir. Kombinattning tajribali mutaxassis va muhandislari, Zarafshon qurilish boshqarmasi va “Sanoatelektromontaj” tresti qurovchilari, shuningdek, xorijlik mutaxassislari loyihani amalga oshirishda faol ishtirok etdi. Majmua ishga tushirilishi natijasida tog‘ jinslari tashish unumdorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish bilan birga 90 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Ushbu stvol skip va klet ko‘tarish qurilmalaridan tashkil topgan. Masalan, skip ko‘tarish qurilmasi yigirma tonnali ikkita bunkerdan iborat. Ular faqat oltin tarkibli ma‘danni yer yuzasiga chiqarishga mo‘ljallangan. Harakatlari har xil. Biri tepaga tog‘ jinslarini olib chiqsa, ikkinchisi bo‘sh holda pastga tushadi. Bunker-dozator qurilmasi past qismiga o‘lchov tarozilari o‘rnatilgan. Ular yordamida bunkerda yuk hajmi 20 tonnaga yetganda yuklash o‘z-o‘zidan to‘xtaydi va tepadan bo‘sh bunker kelishi kutiladi. Stvolda yuk tashish nihoyatda tejamkor va unumli. Misol uchun, uning kullik unumdorligi 3835 tonnani, yillik quvvati 1,4 million tonnani tashkil etadi. Klet ko‘tarish qurilmasi esa ishchi-xizmatchilar va kerakli jihozlarni yer osti gorizontlariga olib tushish hamda olib chiqishga mo‘ljallangan.

Bu qurilmalar har jihatdan xavfsiz va tejamkor. Misol uchun, skipli tik shaxta stvoliga o‘rnatilgan 20 tonnali bunkerlar orqali 60 tonna tog‘ jinslarini yer yuzasiga olib chiqishga atigi 8-10 daqiqa vaqt ketadi. Qurilma elektr energiyasi hisobiga ishlagani bois, ekologik jihatdan atrof-muhitga muqaddar salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Shu bois, vaqt sarfi va yoqilg‘i materiallari 60-70 foizgacha iqtisod qilinadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, joriy yilning avgust-dekabr oylarida kundan o‘ziyurar yer osti texnika vositalari yordamida 244 ming 800 tonna ma‘danni yer yuzasiga olib chiqish xarajatlari shuncha ma‘danni skipli shaxta stvoli orqali yer yuzasiga chiqarishga ketadigan xarajatlardan 14,2 mingga kam bo‘ladi. Iqtisodiy samara 14,2 milliard so‘mni, 2026-yilda esa 44,5 milliard so‘mni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlar kon-metallurgiya sanoatida ham samara bermoqda. Soha xodimlari yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shish maqsadida kunu tun astoydil mehnat qilmoqda. Mana shunday fidoyilik va mas‘uliyat tufayli erishilayotgan yutuqlar kelgusida yanada katta vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qiladi.

NUKUSDAGI LOYIHA BEMORLARGA UMID BAG‘ISHLADI
ENDI SIL KASALLIGINI ANIQLASH VA DAVOLASH OSON

Boshlanishi 1-betda

— Amalga oshirilgan ishlar natijasida erta tashxis va o‘z vaqtida boshlangan davolash bemorning holatini ancha yaxshilashi, kasallikning yuqish xavfini kamaytirishini ko‘rsatdik, — deydi “Chegarasiz shifokorlar” xalqaro tashkiloti vakili Norman Sitali. — Biz to‘g‘ridan to‘g‘ri tibbiy yordam berish bilan birga shifokorlarni tayyorlash, klinik amaliyotni takomillashtirishga ham ahamiyat qaratdik. Shuningdek, bu turdagi xizmatlarni milliy sog‘liqni saqlash tizimiga integratsiya qildik. Shu orqali sohaning barqaror takomillashuviga hissa qo‘shildi. “Chegarasiz shifokorlar” ushbu loyihadagi faoliyatini yakunlar ekan. Sog‘liqni saqlash vazirligi tashabbusini to‘liq o‘z qo‘liga olib, O‘zbekistonda silga qarshi kurashni mustaqil ravishda davom ettirishiga ishonamiz.

Dasturning muhim yo‘nalishlaridan biri soha xodimlari salohiyatini oshirish edi. Ko‘zlangan maqsadga erishildi. Endi milliy tibbiyotimiz xodimlari va mas‘ullari mustaqil tarzda silga qarshi kurashish imkoniyatiga ega

bo‘ldi. Shuningdek, loyiha doirasida bemorlar ruiyatini ko‘tarib, ishonchini mustahkamlash uchun psixologik maslahat xizmati ham tashkil etildi.

— Ushbu loyiha hududida kasallik yukini sezilarli darajada kamaytirishda muhim rol o‘ynadi. Bu borada innovatsion yondashuvlar joriy qilindi. Davolash usullari muvaffaqiyatli tatbiq etilib, silga qarshi kurashda boy tajriba to‘plandi, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori o‘rinbosari Irina Liverko.

Loyihaning katta yutuqlaridan biri Nukusda Markaziy Osiyodagi eng zamonaviy mikobakteriologiya laboratoriyasi tashkil etilgani bo‘ldi. U sil va ko‘p dorilarga chidamli sil (MBCH-sil)ni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Yuqori sifatli tashxis xizmatlarini taqdim etadi.

Ilgari dorilarga chidamli sil bilan kasallangan bemor 18-24 oy davomida davolanardi. Bu muolaja kurslari og‘ir va nojo‘ya ta‘sirlardan xoli emasdi. Muammoni hal qilish maqsadida “Chegarasiz shifokorlar” 2016-yilda TB-

Sog‘lom sog‘lom turmush tarzi



PRACTECAL klinik sinovini boshladi. Sinovlar jarayonida Nukus shahri asosiy nuqtalardan biriga aylandi.

Tadqiqot natijalari Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2022-yildagi yangi davolash

tavsiyalariga asos bo‘ldi. Ushbu sxema ustuvor deb e‘tirof etildi. Shundan so‘ng mazkur sxemani O‘zbekiston bo‘ylab keng joriy etishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Chegarasiz shifokorlar” va Sog‘liqni saqlash



vazirligi hamkorligida amaliy tadqiqot o‘tkazildi.

“Chegarasiz shifokorlar” Nukusdagi faoliyatini yakunlab, dasturni to‘liq milliy tizimga topshirmoqda. Sog‘liqni saqlash vazirligi esa silga qarshi kurashishni davom ettirish va uni yanada mustahkamlashga qat‘iy bel bog‘lagan. Uzoq yillik hamkorlik O‘zbekistonda silga qarshi samarali, insonparvar va zamonaviy yondashuvni ta‘minlash uchun mustahkam poydevor yaratdi.



O‘tgan yillar davomida “Chegarasiz shifokorlar” OIV, C gepatiti va sil kabi yuqumli kasalliklarga qarshi milliy kurashni kuchaytirishda muhim rol o‘ynadi. Innovatsion davolash usullari va inson manfaatlariga yo‘natilgan xizmat ko‘rsatish modellari orqali bu tashkilot mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilashga munosib hissa qo‘shdi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiriUSHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

IJRO INTIZOMI VA SHAXSIY MAS’ULIYAT – MUVAFFAQIYAT SARI TASHLANGAN QADAM

Boshlanishi 1-betda

Ijro intizomi faqatgina topshiriq bajarish emas, balki uni belgilangan muddatda, sifati va mas’uliyat bilan amalga oshirish demakdir.

Har qanday tashkilotda, xoh davlat idorasi bo’lsin, xoh xususiy sektor, ijro intizomiga rioya qilinmasa, muvaffaqiyatga erishish qiyin. Chunki intizomga rioya qilinmaslik, ya’ni tartibsizlik samarasizlikka, kechikishlarga va natijasizlikka olib keladi.

Intizom rivoj va barqarorlik asosidir. Har bir soha va tashkilotda ijro intizomi ta’minlanmasa, hatto eng to’g’ri qaror ham qog’ozda qolib ketadi. Shu bois, bugun mamlakatimizda barcha darajadagi rahbarlar va xodimlardan mas’uliyat va intizom talab etilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, har bir xodimning o’z vazifasini sidqidildan, javobgarlik hissi bilan bajarishi nafaqat shaxsiy, balki butun jamoa va tashkilot rivojiga xizmat qiladi.

Shaxsiy mas’uliyat insonning o’z harakatlari va qarorlari uchun javob berishga tayyorligi, ishonchiligi va tashabbuskorligidir. Mas’uliyati his qilgan inson ishiga jiddiy yondashadi, yangilikka intiluvchan bo’ladi va doimo o’z ustida ishlaydi. Bunday insonlar nafaqat ish joyida, balki jamiyatda ham faol va ibratli shaxs sifatida taniladi.

Mas’uliyatni his qilish insonning eng oliy axloqiy fazilatlaridan biridir. U jamiyat oldidagi burchi, ishiga, so’ziga, va’dasiga sadoqatdir. Har qanday muvaffaqiyat shaxsiy mas’uliyat hissidan boshlanadi.

Shaxsiy mas’uliyat rivojida oila, maktab, jamiyat va ish muhiti muhim rol o’ynaydi. Agar insonga yoshlikdanoq mas’uliyatli bo’lish, vazifani sidqidildan bajarish o’rgatilsa, u hayotda qaysi sohada ishlamasin, muvaffaqiyatni ko’lga kiritadi.

Ijro intizomi va shaxsiy mas’uliyat bir-biriga chambarchas bog’liq. Birortasi yetishmasa, boshqasining samarasi to’liq namoyon bo’lmaydi. Mana shu ikki tushunchani hayot tarziga aylantirgan insonlar doimo olg’a intiladi, ishonch qozonadi va haqiqiy muvaffaqiyat sohibiga aylanadi.

Yurtimizdagi keng ko’lamli islohotlar, yangilanish va raqobat muhitida har bir fuqaroning shaxsiy mas’uliyati va intizomi muhim ahamiyat kasb etadi.

Vazirlik va davlat idoralari topshiriqlarni o’z vaqtida va sifatli bajarmasligi, ular tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy jihatdan puxta tayyorlanmasdan hukumatga sifatsiz kiritilishi holatlarining oldini olish, qolaversa, professional bilimi, “Ijro.gov.uz” tizimida ishlash ko’nikmasini shakllantirish maqsadida mas’ul xodimlar malaka oshirish kurslarida faol ishtirok etishi yo’lga qo’yilgan.

Xususan, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi ham soha xodimlarining bilim va ko’nikmalarini mustahkamlash maqsadida har chorakda iqtisodiy o’quvlar tashkil qilmoqda.

Joriy yilning 25-iyulida Prezidentimizning “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni imzolaniishi soha xodimlari uchun ayni muddao bo’ldi.

Farmon bilan qonunlar, O’zbekiston Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbari va hukumat hujjatlari ijrosi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy qilish, ijro natijasi bo’yicha aniq hisobdorlikni ta’minlash, shuningdek, barcha bo’g’indagi rahbarlar va xodimlarning ijro intizomiga qat’iy rioya etish bo’yicha shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini yanada oshirish maqsadida asosiy vazifalar hamda yo’nalishlar belgilab berildi.

Bundan tashqari, “Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar bilan ishlashda O’zbekiston Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi farmoni hamda 31-maydagi qarori talablaridan kelib chiqib, soha faoliyatiga tegishli har bitta qonunchilik hujjati ijrochilarga yetkazilib, nazorat rejalari ishlab chiqilib, ijrosi ta’minlanmoqda.

Ushbu yo’nalishda har haftaning dushanba va juma kuni muhokamalar tashkil qilinib, o’tkazilayotgan apparat yig’ilishlari, kengaytirilgan yig’ilish hamda hay’at yig’ilishi bayonlari rasmiylashtirib kelinmoqda.

Inspeksiya kelib tushgan barcha qonunchilik hujjatlari bilan tarkibiy tuzilmalar doimiy ravishda tanishtirib borilmoqda, jumladan, ijro muddatlari alohida nazoratga olinmoqda.

Xususan, 2025-yilning 1-sentabr holatiga 510 ta hujjat, shundan 65 ta qonun, Prezidentning 71 ta

farmon, farmoyish va 120 ta qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 254 ta qarori ro’yxatga olinib, ijrosiga mas’ul xodimlar belgilandi.

Joriy yilning o’tgan davri mobaynida qonunchilik hujjatlarini nazorat qilish tizimi orqali inspeksiya tomonidan 39 ta me’yoriy hujjat bo’yicha 148 ta topshiriq ijrosi yuzasidan tegishli ishlar tashkil qilindi.

2025-yil 1-sentabr holatiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Prezidentning 33 ta hujjati (9 ta farmon, 18 ta qaror va 6 ta bayon) bo’yicha 107 ta (farmon ijrosi yuzasidan 64 ta, qaror bo’yicha 36 ta va bayon bo’yicha 7 ta) topshiriq ijrosi davom ettirildi.

Shuningdek, har o’ning 25-sanasisga keyingi oyda muddati keladigan topshiriqlar o’z vaqtida va to’liq bajarilishini ta’minlash yuzasidan rahbar o’rinbosari va markaziy apparatning tegishli bo’linmalari kesimida kunlik kalendargrafik va “yo’l xarita”si ishlab chiqilib, ijrosini ta’minlash bo’yicha chora-tadbirlar belgilab olinmoqda.

Natijada yil boshidan jami 109 ta (shu jumladan, o’tgan yillardagi 63 ta va 2025-yildagi 46 ta) qonunchilik hujjati topshiriqlari yuzasidan axborotlar tayyorlanib, ijrosi ta’minlandi.

Inspeksiya tomonidan qonun va qonunosti hujjatlarni ishlab chiqishda ham qator ishlar bajarildi.

Jumladan, “O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi qonun hamda hukumatning “Qishloq xo’jaligi ekinlari urug’liklarining sifatini baholashda yangi tizimni joriy etish to’g’risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.

Har bir inson muvaffaqiyatga erishishni istaydi. Ammo muvaffaqiyat o’z-o’zidan kelmaydi. Uning poydevori ijro intizomi va shaxsiy mas’uliyatdir. Kimki o’z ishini sidqidildan bajarsa, intizomli va mas’uliyatli bo’lsa, albatta, maqsadlariga yetadi.

Esda tutaylik, “Muvaffaqiyat bu — istak emas, balki harakat, bu orzu emas, balki intizom va mas’uliyat samarasidir”.

Abrol VAHOBOV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Agrosanoat majmui ustidan nazorat
qilish inspeksiyasi boshlig’i



Bugun Xatirchiga yo’li tushgan kishi tumandagi o’zgarishlarni ko’rib ko’ngliga nur inadi. Obod ko’chalar, zamonaviy turar joylar, savdo va xizmat ko’rsatish nuqtalari ko’zni quvontiradi. Bu jarayonda ishbiarmon ayollarning hisssasi katta bo’lmoqda. Tumanda ishsiz xotin-qizlar kasb-hunarga o’qitilyapti. Turli loyihalar asosida ish boshlash arafasida bo’linganlar imtiyozli kreditlar ajratilmoqda.

Yil boshidagi xatlovda kam daromadli, ishsiz va tadbirkorlik qilish istagida bo’lgan 13 ming xotin-qiz ro’yxati shakllantirilgan edi. O’tgan davr mobaynida ularning 10 ming nafariga har tomonlama ko’mak berildi. Ular barqaror daromadli ish bilan ta’minlandi. Kichik loyihalar asosida oilaviy tadbirkorlikni yo’lga qo’yimoqchi bo’lgan xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar asosida yordam berildi.

“Bo’g’irdoq” MFYda yashaydigan Gulandom Rustamova ham ayollarni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan “Hamroh” loyihasidan 100 million so’m imtiyozli kredit olib, o’z xonadonida novvoyxona ochdi va oilaviy tadbirkorligini yo’lga qo’ydi.

— Uyda ishsiz o’tirganimda juda tushkunlikka tushgandim, — deydi Gulandom Rustamova. — Tadbirkor

ayollarga havas qilardim, ammo imkoniyatim yo’q edi. Mutasaddilar qiziqishim va qanday ish bilan shug’ullanish xohishim borligini so’raganida, non yopib sotishni o’ylab yurganimni aytdim. Menga har tomonlama ko’mak va tavsiyalar berishdi. Imtiyozli kredit ajratilgandan so’ng zarur jihozlar xarid qilib, uyimda novvoylikni yo’lga qo’ydim. Dastlab kredit olishga cho’chidim. “Mahalla yetitilgi” daldasi bilan ishga kirishdim. Hozir buyurtmalarimiz ko’p. Faoliyatimni kengaytirib, mahalladagi ishsiz 4 xotin-qizning bandligini ta’minladim. Bir kunda 300-350 ta non va patir yopamiz. Ayni vaqtda pishiriqlar tayyorlab sotishni reja qilaymiz. Unga zarur bo’lgan sharoit yaratish va uskunalar xarid qilish arafasidamiz. Ushbu loyiha ham amalga oshsa, yana bir necha xotin-qiz ishli bo’ladi.

Tumanda xotin-qizlar tadbirkorligi bo’yicha bu kabi misollar talaygina. Polvonota mahallasida aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, Sayxunobod tajribasi asosida tomorqasidan samarali foydalanayotgan xotin-qizlar o’z oilalarini barqaror daromad bilan ta’minlamogda. Jarayonga mahallalardagi xotin-qizlar faollari ham munosib hissa qo’shyapti.

— Mahallamizda 2368 kishi yashaydi, shundan 565 nafarini 30 yoshdan oshgan xotin-qizlar tashkil etadi, — deydi Polvonota mahallasi xotin-qizlar faoli Shahnoza Suyarova. — Joriy yilda 67 nafar ishsiz ayolga tomorqasida issiqxonalar qurish uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Issiqxonalarda pomidor, bodring, bulg’or qalampir va boshqa qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirilmoqda. Quvonarlisi, yiliga uch martagacha hosil olinayapti. Bundan tashqari, xotin-qizlarning parrandachilik bilan ham shug’ullanyapti. Ularga har tomonlama ko’mak va mutaxassislar tomonidan zarur tavsiyalar berib borilmoqda.

Muhimi, hududlarda xotin-qizlar mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, o’z tadbirkorligi bilan aholi bandligi va farovonligiga munosib hissa qo’shmoqda.

G’olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri



Bugunning gapi

TADBIRKOR KUCHI — DA’VATKOR KUCH

Davlatlar taraqqiyoti tadbirkorlarni qo’llab-quvvatlashi, ularning ekin-erkin faoliyat yuritishi, o’z salohiyatini ro’yobga chiqarishi uchun qulay sharoit yaratishiga bog’liq. Mamlakatimizda bu sohani rivojlantirish maqsadida olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar, qaratilayotgan alohida e’tibor zaminida ham ana shu xayrli niyat mujassam. Tadbirkorlarga iqtisodiyotning tayanchi sifatida qarab, qulay biznes muhiti yaratilayotgani boisi ham shunda.

— Xalqimiz tadbirkorlari azaldan halol mehnat qilib, rizq-ro’z topadi, oila tebratadi, yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shadi, — deydi Qibray tumanidagi “Navruz International Corp” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischisi Shuhrat Ilhomov. — Bugun soha vakillari o’zini qanchalik erkin his qilsa, mehnati shuncha samarador bo’ladi. Yurtimizda yakka tartibdagi tadbirkorlikdan yirik loyihalargacha qo’llab-quvvatlanmoqda. Bu jarayonda ishbiarmonlik faoliyatiga to’siq bo’ladigan omillar bartaraf etildi. Xususan, biznes yuritishga doir ko’plab litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. Mavjudlarini esa rasmiylashtirish tartibi soddalashtirilib, muddati qisqartirildi. O’rtiqcha tekshiruv, naqd pul, valyuta va xomashyo bo’yicha ko’plab cheklolarga barham berildi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 18-avgustdagi “Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to’g’risida”gi farmoniga binoan taqdirlanganlar orasida Shuhrat Ilhomov ham bor. Unga mamlakatimizda tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, ishbiarmonlik muhitini yaxshilash borasida yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, yurtimizning iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini yuksaltirishda salmoqli natijalarga erishayotgani, investitsiyalarni jalb qilish, import o’rini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko’rsatishni yanada kengaytirish, aholi bandligi va farovonligini ta’minlash yo’lida alohida jonbozlik ko’rsatayotgani uchun “Shuhrat” medali topshirildi.

— Davlatimiz rahbari yangi O’zbekistonda bundan sakkiz yil oldin boshlangan keng qamrovli islohotlar avvaldayoq tadbirkorlarga katta ishonch bildirdi, — deydi Shuhrat Ilhomov. — Bu yilgi ochiq muloqotdagi nutqida ham tadbirkorlarni qiynayotgan muammolar yechimi sifatida juda ko’plab imtiyozlar berilishini ma’lum qildi. Hatto yakka tartibdagi tadbirkorlar, o’zini o’zi band qilganlarga ham ko’mak berilib, ular ham yirik, iqtisodiy baquvvat korxonalar sohibiga aylantirildi. Ishbiarmonlarning ko’payishi esa yurtimiz taraqqiyoti, aholi

“O’zbekistonda ishlab chiqarilgan” yorlig’ini dunyoga tanitish bo’yicha faol ishlayapmiz. Yangi marralar oldinda va biz ularni zabt etishga tayyormiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda qulay investitsiya va ishbiarmonlik muhitini ta’minlash, mulk daxlsizligi, bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish bo’yicha davlat o’ziga aniq majburiyatlar oldi. Jamiyatimizdagi bunday yangilanishlar xalqimiz hayotida tub o’zgarishlar yasamoqda. Odamlarda tadbirkorlikka qiziqish ortdi, barcha tarmoqda tadbirkorlik muhiti shakllanib, kichik va o’rta biznes hayotimizga jadal kirib keldi.

Yaqinda Prezidentimiz bu jabhadagi ishlarga oid taqdimot bilan tanishib, tizimdagi islohotlarni yanada jadallashtirish bo’yicha qator taklif va tavsiyalar berdi. Xususan, endi bu boradagi islohotlar davom ettirilgani holda shaffof tadbirkorlik muhitini shakllantirish, naqdsiz to’lovlar uchun qulayliklarni kengaytirish ko’zda tutilmoqda. Unga ko’ra, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o’zini o’zi band qilgan shaxslar uchun 2030-yil 31-dekabrga qadar maxsus huquqiy rejim joriy etiladi. Ularni davlat ro’yxatidan o’tkazishdan tortib hisobotni topshirishgacha bo’lgan barcha asosiy xizmatni birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli platformalar yaratiladi. Faoliyatni rasmiylashtirish, bank hisobvaraqlari ochish va boshqarish, soliqlarni hisoblash va to’lash, hisob-kitob qilish va fiskal cheklarni shakllantirish ushbu raqamli platformalar orqali yuritiladi.

Bu tizimda elektron hamyon ochilishi tadbirkorlarga daromadlarni qabul qilish, xodimlar, kontragentlar va tashkilotlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni to’lash imkoniyatini beradi. Elektron hamyonga ega yakka tartibdagi tadbirkorlar va o’zini o’zi band qilgan shaxslar uchun bank hisobvaraqlarini ochish ixtiyoriy bo’ladi.

2025-yil 1-noyabrdan boshlab bu jarayonlarda “QR-kod” va “tap to pay” texnologiyasidan foydalaniladi. Hujjatlarni masofaviy biometriya va SMS xabarnoma orqali elektron



farovonligiga xizmat qiladi. Kasbining fidoyisi bo’lgan, faollik ko’rsatayotganlar mehnatining o’ziga xos rag’bat topayotgani esa soha vakillarini birdek ruhlatiradi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, ishbiarmonlik muhitini yaxshilash borasidagi imkoniyatlar tadbirkorlar oldiga mas’uliyatli vazifalar qo’yimoqda. — Uzoq yillik tajribamdan kelib chiqib, bugun tadbirkorlikka qaratilgan e’tibor avvallari kuzatilmaganini aytmogchiman, — deydi ishbiarmon. — Bu bizga katta kuch va ilhom bermogda. 2016-yilda korxonamizning yillik tushumi 170 milliard so’m bo’lgan. 2025-yilda esa bu ko’rsatkich 1,2 trillion so’m dan ortiq bo’lishi kutilmoqda. Ya’ni shu o’ngi o’n yilga qariyb 10 barobar o’sishga erishdik. Ishchi-xodimlar soni ham sezilarli oshdi: 2016-yilda 700 kishi ishlagan bo’lsa, bugun bu ko’rsatkich qariyb 1700 nafarga yetdi.

Shu bilan birga, korxonaning eksport qiymati 500 ming AQSH dollariga yetdi, ishlab chiqarish quvvati esa ikki barobar oshdi. Bu natijalarning barchasi jamoaning mehnati va mamlakatimizdagi qulay biznes muhiti samarasidir. Soliq va bojxona tizimidagi islohotlar, litsenziya va ruxsat berish jarayoni soddalashtirilishi, tadbirkorlar uchun erkin raqobat muhiti yaratilgani muvaffaqiyatlar uchun ayni muddao bo’ldi. Ayniqsa, eksportni qo’llab-quvvatlash siyosati mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozor eshiklarini ochmoqda.

Korxonaning kelgusidagi rejalari haqida gap ketar ekan, Shuhrat Ilhomov bunday deydi:

— Biz uchun asosiy yo’nalish — innovatsiya va sifat. Shuningdek, yangi texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga asoslangan ishlab chiqarish tizimini yo’lga qo’yish, mahsulot sifatini yanada oshirish va eksport geografiasini kengaytirishni maqsad qilganmiz. Barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish, ekologik mas’uliyatni kuchaytirish va mahalliy ishchi-xodimlar salohiyatini oshirishga katta ahamiyat qaratayapmiz.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

NAVOIYLIK ISHBILARMON XOTIN-QIZLAR

XALQ FAROVONLIGI VA YURT OBODLIGIGA MUNOSIB HISSA QO’SHTMOQDA

Xatirchi tumanining drayverlaridan biri baliqchilikdir. Hududda ushbu sohani rivojlantirish uchun barcha sharoit va imkoniyat yaratilgan. Ayni vaqtda bu yo’nalish xotin-qizlar bandligini ta’minlashda ham muhim o’rin tutmoqda.

Tumanning Zarafshon mahallasida yashovchi yetmish yoshdan oshgan Husniya aya Razzoqova ham baliqchilik sohasida tadbirkorlik qiladi. Qahramonimiz yil sayin hovuzlar sonini ko’paytirib bormogda. Ayni vaqtda beshta hovuzi bor onaxon mahalliy bozorga tonnalab baliq yetkazib beryapti.

— Avval ham ko’pchilik baliq boqishni bilgan, ammo buning uchun yetarli sharoit bo’lmagan, — deydi Husniya aya Razzoqova. — Mahallamiz hududida o’rmon xo’jaligi yerlari tashlandiq holatda edi. Shu yerda baliq boqishni yo’lga qo’yidik. Dastlab bu ishni eplarmikanman degan xayolda kichik suv havzasida baliq yetishtirib ko’rdim. Asta-sekin tajriba to’plab, o’rmon xo’jaligidan shartnoma asosida yer olib, baliq boqish uchun 5 ta yirik hovuz qildik. Bitta hovuzdan 10 tonnagacha mahsulot olamiz. Daromad ham shunga yarasha. Hozir tajribamni yoshlarga, xotin-qizlarga o’rgatayapman. Kelgusida faoliyatimni yanada kengaytirishni maqsad qilganman. Yoshim yetmishdan oshgan bo’lsa ham buning uchun shijoatim yetarli. Muhimi, bizga barcha imkoniyat yaratib berilgan.

Aslida, ayolning tabiatida tadbirkorlik bor. Buni ularning oila byudjetini to’g’ri taqsimlashi, tejab ishlatishi, shaxsiy ishlarini doim aniq rejalashtira olishida ko’rish mumkin. Shuning uchun ham ayollar tadbirkorligi imtiyoz va imkondan quvvat olib, muvaffaqiyatli amalga oshyapti.

— Viloyatimizda joriy yil avvalida kam daromadli yoki ishsiz xotin-qizlarni aniqlash maqsadida xatlov o’tkazildi, — deydi Navoiy viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi bosh mutaxassisi Maftuna Qurbonova. — Shu yilning o’tgan 8 oyi davomida ro’yxatga olingan 55 mingga yaqin xotin-qizning 52 ming nafari doimiy ish bilan ta’minlandi. “Biznesga ilk qadam” loyihasi asosida tadbirkorlik istagida bo’lgan xotin-qizlarga har tomonlama ko’mak berildi.



“Hamroh” loyihasi doirasida biznesini kengaytirmogchi bo’lgan ishbiarmon ayollar qo’llab-quvvatlandi. Joriy yilning 1-avgustiga qadar tijorat banklari tomonidan 14 ming 290 xotin-qizga 528 milliard so’m kredit ajratilgan. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 754 xotin-qizga 130 milliard so’m kredit berildi. Natijada 2068 dan ortiq ayol tadbirkor sifatida ro’yxatdan o’tdi.



“KITOBXON YOSHLAR LIGASI”

400 MINGDAN ZIYOD ISHTIROKCHINI BIRLASHTIRDI

Ma’naviy olami kitob bilan boyib, tafakkuri mutolaa orqali charxlangan yoshlar — jamiyatning nurli ertasi. Shu ma’noda, “Kitobxon yoshlar ligasi” tanlovini ana shu nurga eltuvchi ma’naviy ko’prik, desak mubolag’a bo’lmaydi.



Abdulmalik AKRAMOV,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi
Talaba va o’quvchilarning ijtimoiy
faolligini oshirish markazi
direktori

Bugun mamlakatimizda yoshlar ma’naviyatini boyitish, ularni kitob o’qishga undash, ilm va tafakkur sari yetaklash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylangan. Shu maqsadda tashkil etilgan “Kitobxon yoshlar ligasi” nafaqat tanlov, balki yoshlarning intellektual uyg’onishiga xizmat qiluvchi noan’anaviy formatdagi o’ziga xos ma’naviy harakatdir. Ushbu tanlov onlayn formatda tashkil etilishi va ishtirokchilar

Bugun “Kitobxon yoshlar ligasi” 400 mingdan ortiq ishtirokchini birlashtirgan keng ko’lamli intellektual harakat sifatida e’tirof etilmoqda. Bu raqam tanlovning nafaqat qamrovi, balki yosh avlodda mutolaa qiziqish ortib borayotganini ham ko’rsatadi.

Tanlov doirasida yoshlar orasida ilmiy-ma’naviy izlanishga qiziqish ortmoqda. U yigit-qizlarni bilim va tafakkur yo’lida birlashtirib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Yoshlar o’qigan asarlari yuzasidan fikr bildirish, muhokama va tahlil qilish madaniyatini o’zlashtiryapti.

Shuningdek, “Kitobxon yoshlar ligasi” doirasida o’tkazilayotgan adabiyot kechalari, yangi kitoblar taqdimoti, kitobxonlik haftaliklari oliy ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy jarayon faollashuviga, talabalar o’rtasida ijodiy fikrlash muhiti kengayishiga zamin yaratmoqda.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o’quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan 2022-yilda ilk bor yo’lga qo’yilgan ushbu loyiha joriy yildan boshlab har chorakda muntazam tashkil etilyapti. Bu yil tanlovning uch mavsumi o’tkazildi. Har bir mavsumda eng faol va bilimdon yoshlar aniqlanib, taqdirlandi. Final bosqichi esa har bir hududdagi yetakchi oliy ta’lim tashkilotlarida oflayn formatda tashkil etildi. Tanlovning o’ziga xos jihatlariidan yana biri unda har mavsumda 21 ishtirokchi g’olib va sovrindor bo’ladi. Yaqinda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi amfiteatrda 2025-yilda o’tkazilgan bellashuv g’oliblarini tantanali taqdirlash marosimi tashkil etildi.



targ’iboti orqali kitobxonlar auditoriyasini kengaytirishi bilan alohida ajralib turadi. Uning inson omili aralashuvisiz, platforma orqali tashkil etilishi shaffof va adolatli bo’lishini ta’minlaydi. Shu sababli uni yoshlar intiqlik bilan kutadi.

Bunday loyihalar yoshlarning mutolaa madaniyatini shakllantirish, milliy va jahon adabiyotining eng sara adabiyot namunalari bilan tanishtirish orqali mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy barkamol shaxslar bo’lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.



Zamon bilan hamnafas

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida ko’p ilg’or fikr va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, bugunning mavzusi — sun’iy intellekt xususida ham fikr bildirdi. Binobarin, sun’iy intellekt rivojlangani sari unga e’tibor ham kuchayib bormoqda. Uni tartibga solish, global muvofiqlashtirish zarurati tobora aniq bo’lib boryapti. Shu bois, Prezidentimiz sog’liqni saqlash, ta’lim, madaniyat sohalarida sun’iy intellektidan foydalanishga doir amaliy yechim va modellarini beg’araz almashishga qaratilgan xalqaro hamkorlik mexanizmi yaratishni taklif etdi.

Sun’iy intellekt: DAVRNING INNOVATSION YUTUG’I



individual reabilitatsiya dasturini ishlab chiqadi. Bu bir jihatdan vaqt va resurslarni tejaydi, ikkinchidan, samaradorlikni oshiradi.

Reabilitatsiya jarayoni ko’p vaqt talab qiladi. Bunda bemorning ruhiy holati katta ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt texnologiyalari bemor xatolarini kuzatib, ularni darhol isloh etadi, mashg’ulotlarning qiziqarliligini oshiradi. Shu tarzda bemorning davolanish tartibiga qat’iy rioya qilishini ta’minlaydi. Bu esa shifokor uchun katta ko’mak.

Sun’iy intellekt shifokor o’mini bosa olmaydi, albatta. U faqat yordamchi vosita, xolos. Chunki bemor bilan muloqot qilish, ruhiyatini ko’tarish, ishonch uyg’otish vazifasini hech qanday texnologiya bajara olmaydi. Ammo sun’iy intellekt qayta-qayta takrorlanadigan vazifalarni bajarish orqali shifokor ishini yengillashtiradi, insonga to’laqonli e’tibor qaratish imkonini beradi.

Insult va infarktiga olib keladigan gipertoniya, yurak-ishemik kasalligi hamda qandli diabet aksariyat bemorlarni nogiron qilib qo’yarmoqda. Birlamchi bo’g’inda sun’iy intellektni qo’llash esa ushbu kasalliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Uning yordamida insult belgilariini erta aniqlash va kasallikdan keyingi reabilitatsiya neurologiyada yangi davrni boshlab bermoqda. Shu tariqa sun’iy intellekt insultdan keyingi hayotni yengillashtirish, bemorlarni jamiyatga qaytarishda beqiyos yordamchiga aylanmoqda.

Eng asosiysi, inson sog’lig’i va hayotini saqlab qolishda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Zero, kelajak tibbiyoti an’anaviy

usullar va yangi texnologiyalar uyg’unligida yaratiladi.

Bugun radiologiyada, rentgen yoki MRT tasvirlarini tahlil qilishda ham sun’iy intellekt qo’llanyapti. Bu tasvirlar aniqligini oshirish yoki tez tashxis qo’yishga imkon beryapti. Qolaversa, ayni paytda oilaviy va ko’p tarmoqli markaziy poliklinikalarga qadam qo’yishingiz bilan sun’iy intellektga yuzma-yuz kelasiz. Misol uchun, tashxisingiz yoki shikoyatingizni raqamli tizimga kiritish orqali sizga qaysi shifokor kerakligini sun’iy intellekt taxmin qilib, kerakli tavsiyalar beradi.

Bundan tashqari, UNICON.UZ yangi raqamli texnologiyalarni o’qitish markazi mutaxassislari tomonidan yangi qurilma ishlab chiqilgan. Sun’iy intellekt modeli yozilgan mazkur texnologiya masofadan turib tana harorati, qon bosimi, organizmda alkaloid moddasi bor-yo’qligi va stress holatini aniqlaydi.

Kelgusida sun’iy intellekt nafaqat tashxis va davolash vositasi, balki davlatning sog’liqni saqlash siyosatida ham muhim qaror qabul qilish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Sun’iy intellektning ta’limdagi o’rni ham e’tiborga molik. So’nggi yillarda ta’lim platformalariga sun’iy intellektning integratsiyalashuvi tufayli interaktiv darsliklar, avtomatlashtirilgan test tizimlari, ta’lim jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati paydo bo’ldi.

Yurtimizda keyingi o’quv yilidan yuqori sinflarga sun’iy intellekt bo’yicha darslar

kiritiladi. Buning uchun 2000 ta sinfxona kompyuter va interaktiv doskalar bilan ta’minlanadi.

Sun’iy intellekt oliy ta’limni zamonaviylashtirishda ham muhim o’rni tutadi. U ta’lim jarayonini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va to’g’rilash bo’yicha takliflar beradi. Talabalarning bilimini tahlil qilib, individual dars rejalari va tavsiyalarini taqdim eta oladi. O’qituvchi yukini yengillashtiradi.

Mamlakatimizda zamonaviy bilim va raqamli ko’nikmalarga ega iqtidorlilarni shakllantiruvchi axborot texnologiyalari ta’lim ekotizimi yaratilmoqda. Hozir bozorda 120 mingdan ziyod zamonaviy fikrlaydigan, xorijiy tillarni biladigan kreativ mutaxassislar mavjud. Kelgusida bunday mutaxassislarni 300 minggacha yetkazish ko’zda tutilgan.

Buning uchun yoshlarni maktab bosqichidayoq xalqaro axborot texnologiyalari mehnat bozoriga tayyorlashga qaratilgan “Al-Xorazmiy vorislari” loyihasi yo’lga qo’yilib, olis hududlarda AT shaharchalar tashkil etilmoqda.

Bunday shaharchalarda yoshlar xorijiy til va zamonaviy texnologiyalar bo’yicha bilimni bepul oshirib kelmogda, — deydi Raqamli ta’lim resurslari markazi direktori Azamat Eshonqulov. — Bu yildan ularning o’quv dasturiga muloqo yangi yo’nalish — sun’iy intellekt darslari kiritiladi. Misol uchun, ChatGPT, DeepSeek, Gemini va boshqa platformalardan to’g’ri foydalanish bo’yicha ko’nikmalar, videotasvir, turli taqdimotlarni shakllantiradigan platformalar bor. Ulardan foydalanib, frilanserlik bilan shug’ullanish, o’zini o’zi band qilib, pul topish imkoniyatiga ega bo’lish uchun sun’iy intellekt bo’yicha bilim olish muhim.

Sun’iy intellekt jamiyat hayotining ajralmas qismi bo’lib xizmat qilayotgan bir paytda undan oqilona foydalanib, mamlakat rivojiga hissa qo’shadigan, kreativ g’oyalarni ilgari suradigan, qobiliyatli mutaxassislarga talab yuqorilgicha qolmoqda. Aholi, ayniqsa, yoshlarning sun’iy intellekt sohasidagi bilim va ko’nikmalarini oshirish maqsadida BAA bilan hamkorlikda “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” dasturi ishga tushirildi. Ushbu loyiha platformasida beshta yo’nalish bo’yicha darsliklar joylashtirilgan. Maqsad — uch yilda bir million yoshning sun’iy intellektidan foydalanish bo’yicha ko’nikmalarini oshirish.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri

“MAQSADIM — IMKONSIZLARGA KO‘MAK BERISH”

Bundan chamasini uch-to’rt oy oldin shahar markazida viloyat hokimligi mas’ullari tashabbusi bilan fuqarolar qabuli tashkil etildi. Odam gavjum. Kimdir kredit, yana biri yo’l, boshqasi ko’prik masalasida... Xullas, har kimning o’ziga yetarli muammosi bor. Hech kim bu yerga shunchaki tomosha uchun kelmagani aniq.

Imtiyoz va natija

Qabul boshlandi. Tartib bo’yicha murojaatchilar masalasiga qarab tegishli soha rahbarlari bilan uchrashuvga yo’naltirilmoqda. Bir ozdan so’ng aholining aksariyati ish so’rab kelgani ma’lum bo’ldi. Ularni chetdan jim kuzatib turgan edim, bir yigit bandlik bo’limi mas’ullari oldiga kelib, ishsiz ekanini aytdi. Imkoni bo’lsa, mahalladan yordam ajratib berilishini so’radi. U muammolarini sanarkan, moliyaviy ahvoli og’irligini ta’kidlashdan charchamasdi. Uning dardini eshitgan rahbar bir oz ensasi qotganicha: “Sexda bo’sh o’rin bor, agar xohlasangiz ishlashingiz mumkin”, dedi. Bilagi ayni kuchga to’lgan, tog’ni ursa tolgon qiladigan yigit har qanday ishni uddalashi ko’rinib turardi. Murojaatchi unchalik xushlamay, maoshi qancha ekaniga qiziqdi.

— Uch million atrofida bo’lsa kerak.
— Eh-he, juda kam-ku. Buncha oylik bilan yashab bo’ladimi?! Doim shunday kam pul beradigan joylarni aytasizlar. Boshqa joyda ish yo’qmi? — dedi yigit.
— Boshqa joylarda mutaxassislik bo’yicha qabul qilinadi. Buning uchun oliy ma’lumot kerak.
— Bilaman, topib olganlarningiz hech kim ishlamaydigan korxona. Faqat shuni takrorlaysiz.



borib, moddiy yordam so’rar ekan. Avvaliga qaysirdir rahbarning rahmini keltirib, bir oz homiylik yordamini olgan. Oson kelgan pulning mazasini bilgach, boqimandalik yo’liga o’tib olgan. Endi biror ish taklif qilinsa, bahona topishdan charchamaydi. Boz ustiga, kattagina hovlisi, tomorqasi bor. Yerni ham o’z holicha tashlab qo’yg’an emish. Xullas, intilsa, izlansa, imkoniyati bor. Ammo “bersang yeyman, ursang o’laman” qabilida ish tutadi. Oramizda shunday odamlar borki, ulardan qancha o’rnak olsak shuncha o’zi. Ularning lasorat ila bajarayotgan har bir ishi tahsinga loyiq. Kitoblik Gulshoda Sharipova ana shunday qahramonlardan!

Gulshoda tug’ilganida ota-onasining quvonchi cheksiz edi. Uni barkamol bo’lib

voyaga yetishi uchun barcha sharoitni yaratishgandi. Ammo taqdir bitigini oldindan bilib bo’lmas ekan. Hali to’qqiz oylik go’dak kutilmagan falokat oqibatida ikki oyog’idan ham ayrildi. Bu qismat ota-onaning qaddini bukib qo’ydi. Bunda kimni aybdor qilishni bilishmasdi. Iloj qancha... Hayotning achchiq sinoviga bardosh berishdan o’zga chora yo’q. Hali yoshiga yetmay, birinchi guruh nogironi bo’lib qolgan qizaloqni parvarishlay boshlashdi. Barchasiga vaqt davo bo’ldi. Kunlar ortidan oyalar, yillar o’tdi. Qiz voyaga yetib, uyda ta’lim olishni boshladi. O’qishga qiziqishi kuchli ekani bois, ustozlarini sira tinch qo’ymas, savollariga javob olmasdan tinchimasdi. Har bir fanni chuqur o’zlashtirishga intilar, topshiriqlarni vaqtda bajarib, yuqori baho oladigan mamnun bo’lard.

Maktabni tugatgach, uyda bekor o’tirishni xohlamadi. Turli gazeta va jurnallarni o’qib, ulardagi ma’lumotlar asosida biror kasb o’rganishga intildi, tikuvchilik bilan mashg’ul bo’lish harakatiga tushdi. Ammo istakning o’zi bilan natijaga erishib bo’lmadi. Buning uchun o’qib, o’rganishi lozim. So’rab-surishtirishlari natijasida dastlab Toshkent shahriga borib, bir oz tajriba oshirib qaytdi. So’ng Termiz shahrida imkoniyati cheklangan kishilar uchun o’qish markazi borligidan xabar topdi. Tezda o’qishga yo’l oldi. U yerda ko’pchilik qatori tikuvchilik sirlarini o’rgandi.

Uyiga qaytgach, mustaqil ish boshladi. Qo’ni-qo’shni, yaqin atrofdagi taniganlardan buyurtma qabul qila, shunga yarasha daromad topardi. To’g’ri, boshida bir oz mushkul bo’ldi.



Ammo vaqt o’tishi bilan uning chevarligidan ko’pchilik xabar topib, buyurtmasi ko’paydi. Ana shu ishi sabab odamlar bilan muloqot qilib, jamiyatning faol a’zosiga aylandi. Muhimi, bekorlikdan qutuldi. Nafaqaga qarab o’rtmay, yaxshigina daromad qilib, ro’zg’orga nafi tegadigan bo’ldi.

Bir kuni gazetada men kabi imkoniyati cheklangan qizning tadbirkorlik qilayotgani haqida o’qib qoldim, — deydi Gulshoda Sharipova. — Tikuvchilik tarmog’ini kengaytirib, biror joyda ishlab chiqarishni yo’lga qo’yishni reja qildim. Mahalla faollari bilan maslahatlashdim. Ular yo’l-yo’riq ko’rsatdi. Kerakli hujjatlarni tayyorlab, ishga kirishdim. Barchasi tayyor bo’lgach, mablag’ zarurligini angladim. Bu muammoga yechim topolmay turganimda, bankdan imtiyozli kredit olishim mumkinligini aytishdi. Bu hal etilgach, tikuv mashinalari sotib oldim. Kitob tumani markazidan bitta xona ajratib berildi. Boshida uch kishi bilan

ish boshlagandim. Hozir 10 nafar xotin-qiz mehnat qilyapti. Asosan, shifoxonalar, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan buyurtmalar qabul qilamiz. Choyshablarni, korxonalarni uchun turli bichimdagi maxsus kiyimlar tikib beryapmiz.

Gulshoda opaning tashabbusi bilan tikuv sexiga faqat imkoniyati cheklangan xotin-qizlar ishga olingan. Nogironligi sabab shu vaqtgacha biror joyda ishlamagan opa-singillarini atrofiga yig’ib, kasbga qiziqitirdi. Natijada ular ham qahramonimiz kabi ishli bo’ldi.

Birinchi guruh nogironlarni, — deydi shu yerda tikuvchilik qilayotgan Sevara Hasanova. — Ilgari biror joyda ishlab, pul topishim haqida o’ylab ham ko’rmagandim. Aslida, inson harakat qilsa, astoydil intilsa, bunga erishish mumkin ekan. Buni hayotim misolida ko’rdim. Hozir o’z qo’llarim bilan tikuv mashinasini ishlatib, mehnat qilib, maosh o’layman. Oilamga yordamim tegyapti. Oldingidek uйда yolg’iz, bekor o’tirish yo’q. Har kuni odamlar orasidaman. Kimdir so’rab turgani, kimgadir nafim tegayotgani quvonchli. Rosti, shu kasb orqali hayotga, yashashga qiziqishim ortdi. Endi avvalgidek tushkunlikka tushish yo’q. Faqat oldinga intilib yashayapman. Birga ishlayotgan hamkasblarim ham xursand.

Ayni paytda tikuvchilik sexida ishlovchilar o’rtacha ikki-uch million maosh olmoqda. Gulshoda opa esa berilgan imtiyozlardan unumli foydalanib, boshqalarga ham nafi tegayotganidan mamnun. Qolaversa, tadbirkorligi sabab yaxshigina daromad ham topmoqda. Kelgusida faoliyatini yanada kengaytirish niyatida. Maqsadi — imkoniyati cheklangan xotin-qizlar bandligini ta’minlash. Ha, Qashqadaryoda ko’pchilikka ibrat qilsa arziydigan ana shunday qahramonimiz bo’l!

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O’zbekiston” muxbiri



Albatta o‘qing!

So‘z dalolati

(“SO‘Z XUSUSIDA SO‘Z” KITOBIDAN)



I So‘z sarmazmun bo‘lib, u ko‘p narsalarga dalolat qiladi. Bir so‘zning o‘zini turli holatlarda turlicha ma’noda qo‘llash mumkin. Binobarin, so‘zni to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri ishlatish uchun uning ma’nolarini iloji boricha mukammal bilishga urinish lozim. Shu nuqtayi nazardan, bir necha so‘z bilan tanishaylik.

“Nafs” so‘zi. Hozirgi oddiy nutqda “nafs” so‘zi ba‘zan hayvonga, asosan, insonga nisbatan qo‘llanadi va “nafs” deganda kishining o‘zining jismoniy talablarini qondirishga bo‘lgan intilishi tushuniladi. Shu intilish kishida me’yordan ortiq yoki axloq doirasidan tashqari bo‘lsa, unday kishini “nafsni yomon” yoki “badnafs” yoxud “nafsini tiyolmagan” kishi deb ataydilar. Agar me’yorida va axloq dalolida bo‘lsa, uni “nafsni yaxshi” yoki “neknafs” kishi deyilar. Agar nafsoniy talabi me’yordan kam bo‘lsa, unday kimsani “nafsni o‘lik” yoki “nafsini tiygan kishi” deyiladi va bu axloqda husn hisoblanadi. Insonda aql bo‘lgani uchun aql nafsni idora qilib turadi. Hayvonda aql bo‘lmagani uchun uning nafsini g‘ariza, ya’ni instinkt boshqaradi. Shuning uchun hayvon nafsoniy talablarini tajovuz yo‘li bilan ham qondiradi. Bu jihatdan insonning hayvondan farq qiladigan yeri uning aql yordamida nafsini tiya olishidir. Nafsini tiya olgan shaxsning insonligi, tiyolmaganning hayvonligi ortiq bo‘ladi. Kishida hayvoniy sifatlarining ustun kelishi uni turli balolarga giriftor qiladi. “Mening nafsim balodur, yonar o‘tga soladi” degan maqolda nafsning ana shu oqibati nazarda tutiladi. Navoiyning ichuvchilar o‘zlarini sher deb tasavvur qilganlari bilan nafs iti oldida zabundurlar, ya’ni mag‘lubdurlar degan mazmundagi bir bayti ham bor. Biz uni ichkilikka berilgan yoki ichgandan so‘ng o‘zini tutolmaydigan kishilar misolida ko‘rishimiz mumkin. Badmast itga o‘xshab hatto o‘z do‘stiga, aka-ukasiga, ota-onasiga akillashi, ularni qopishi mumkin. Aroqparast it yotmagani yerlarda yotib qolishi mumkin va hokazo. Ammo hushyor kishi nafsini tiyolmasa, yomonroq bo‘ladi. Badnafsning martabasi qancha yuqori bo‘lsa, uning zarari shuncha ortiqroq bo‘ladi.

Endi “nafs” so‘zining maxsus ma’nolari bilan tanishaylik. Bu so‘zning birinchi lug‘aviy ma’nosi “o‘z”dir. Bu ma’no “izzati nafs” iborasida saqlangan. “Har kishining izzati nafs bo‘r” deyilsa, har kim o‘zini o‘zi aziz deb biladi, o‘zgalar tomonidan xor etilishi yoki haqorat qilinishiga yo‘l qo‘ymaydi degan mazmun kelib chiqadi. “Birovning izzat-nafsiga tegadigan ish qilish kerak emas” deganda ham kishining o‘ziga o‘zi azizligi nazarda tutiladi.

“Nafs”ning “o‘z” degan ma’nosidan kelib chiqqan yana bir ma’nosi bor, bu narsa yoki muddaoning o‘zginasi, ya’ni aynan o‘zi, haqiqati degan ma’no bo‘lib, bu ma’no “nafs ul-amr” iborasida saqlangan. “Gapning nafs ul-amrini ayt” deganda gapning haqiqatini, maqsadning aynan o‘zini ayt degan fikr tushuniladi. Nafs ul-amrda bu ish shunday bo‘lishi kerak deganda, haqiqatan, ishning o‘zginasini nazarga olganda bu ish mana shunday bo‘lmog‘i kerak degan mazmun chiqadi.

Ilmda “nafs” deb jismning o‘zidagi — uning vujudini ta’minlovchi kuchlar yig‘indisiga aytiladi. Jonsiz jismning nafsini “nafs tab’iy” yoki “nafs ma’daniy” deb ataganlar va bu nafs bir-biriga qarama-qarshi ikki kuchdan iborat.



bog‘liq harakati esa hayvonnik singari ixtiyoriy emas, tabiiydir.

Hayvonning his va ixtiyoriy harakatini ishga soluvchi kuchlarning yig‘indisini “nafs hayvoniy” yoki “hayvoniy nafs” deb ataydilar. “Hayvon” so‘zining tub lug‘aviy ma’nosi tirik va tiriklikdir. Shuning uchun “hayvon” so‘zi keng ma’noda qo‘llanib, o‘simlik jinsidan yuqori jinsni anglatishi mumkin. Bu holda u insonni ham o‘z ichiga oladi va inson hayvon jinsining bir turi bo‘ladi. “Hayvon” so‘zi tor ma’noda qo‘llanganda esa “inson” so‘ziga qarama-qarshi qo‘yiladi va insondan o‘zga tirik mavjudotni bildiradi.

“Nafs hayvoniy” deganda, tirik mavjudotning tirikligini ta’minlovchi quvvatlar yig‘indisi tushuniladi.

Tiriklikka sezish va ixtiyoriy harakat xos. Buni ko‘rish, eshitish, tatish, islash va sezishdan iborat tashqi tuyg‘u quvvatlari hamda ichki quvvatlar ta’minlaydi. Olimlarimiz bu quvvatlarining hammasini “his” va “havoss” deb ataydilar. “Havoss” so‘zi “his” so‘zining ko‘pligi bo‘lib, hislar degani. Ko‘rish quvvatini “bosira”, eshitish quvvatini “somi’a”, tatish quvvatini “zoyiqa”, islash quvvatini “shomma” va sezish quvvatini “lomisa” deb, bularning hammasiga, ya’ni beshoviga “havossi zohir” yoki “havossi zohiri” deb nom qo‘yganlar. Tirik mavjudot bosira, ya’ni ko‘rish quvvati bilan shakl va rangni, katta-kichikni, uzun-qisqani, uzoq-yaqinni va nuru zulmatni idrok qilib, bir-biridan farq qiladi. “Somi’a”, ya’ni eshitish quvvati bilan turli tovushlar, so‘zlarni eshitib, ularni bir-biridan tortuvchidir.

Biri muhitga intiluvchi kuch bo‘lib, jismning siqilib, o‘zi uchun kerak bo‘lgan darajadan ortiq zichlashishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu kuch “xiffat” deyiladi. “Xiffat”ning lug‘aviy ma’nosi yengillikdir. Ikkinchisi, markazga intiluvchi kuch bo‘lib, bu jismning bo‘shashib yoki parchalanib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu kuch “saql” deb ataladi. “Saql”ning lug‘aviy ma’nosi og‘irlikdir.

O‘simlikdagi o‘stiruvchi kuchlar nafs nabotiy, ya’ni o‘simlik nafs yoki “nafs nomiya”, ya’ni o‘suvchi nafs deb ataladi. O‘simlikda ma’daniy nafs ham bo‘ladi. Ammo bu nafs mazkur ikki kuchdan tashqari o‘rish uchun zarur bo‘lgan sakkizta kuchga egadir. Bularning birinchisi, ozuqani o‘simlik ichiga tortadigan, shimadigan kuch bo‘lib, “joziba” deb ataladi. “Joziba” so‘zining lug‘aviy ma’nosi tortuvchidir.

Ikkinchisi, ozuqaning kerakli qismini tanada tutib turuvchi kuch bo‘lib, “mosika” deyiladi. “Mosika” so‘zining lug‘aviy ma’nosi tutuvchi, ushlab turuvchidir.

Uchinchisi, ozuqani hazm qiluvchi kuch bo‘lib, unga “hozima” deb nom qo‘yilgan. “Hozima”ning lug‘aviy ma’nosi hazm qiluvchidir.

To‘rtinchisi, hazm bo‘lgan ozuqaning tanaga singadiganini singmaydiganidan ajratuvchi kuch bo‘lib, “mumayyiza” deb ataladi. “Mumayyiza” so‘zining lug‘aviy ma’nosi ajratuvchidir.

Beshinchisi, ozuqaning tanaga singmaydigan, keraksiz va ortiqcha qismini tanadan tashqariga chiqaruvchi kuch bo‘lib, buni “dofia” deydlar. “Dofia” so‘zining lug‘aviy ma’nosi daf qiluvchi, suruvchidir.

Oltinchisi, ozuqani o‘simlik jismiga moslashtirib, shu jismga aylantiruvchi kuch bo‘lib, bu “musavvira” degan nomni olgan. “Musavvira” so‘zining lug‘aviy ma’nosi shakllantiruvchidir.

Yettinchisi, urug‘lantiruvchi kuch bo‘lib, “muvalida” deyiladi. “Muvalida” so‘zining lug‘aviy ma’nosi daf qilib, suruvchidir. Sakkizinchisi, o‘simlikning kattalashishiga yordam beruvchi kuch bo‘lib, bunisini “munammiya” deb ataganlar. “Munammiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi o‘stiruvchidir.

Endi hayvonga kelsak, hayvonda his va ixtiyoriy harakat bor. O‘simlikda his butunlay yo‘q. Hayvon va o‘simlik o‘rtasidagi oraliq mavjudotlar mustasnodir. Masalan, bargi yoki guli bilan hasharotlarni tutib, so‘rib tashlaydigan o‘simliklar ham bor. Bunday oraliq mavjudotlar “barzax” deb ataladi. O‘simlikning o‘rish bilan

farqlaydi va ma’nosini tushunadi. Shomma, ya’ni islash quvvati bilan turli islarni idrok qilib, ularning kayfiyatini biladi. Zoyiqa, ya’ni tatish, ta’min bilish quvvati bilan chuchuk, achchiq va nordon kabi mazalarni idrok qiladi. Lomisa, ya’ni sezish, umuman, badan va xususdan, qo‘l bilan yumshoq-qattiqni, issiq-sovuqni, quruq-bo‘lini, og‘ir-yengilni idrok qilib, ularni bir-biridan farq qiladi.

Quvvat nazarda tutilmaganda ko‘rish “basara”, eshitish “sam”, islash “shamm”, tatish “zavq”, sezish “lams” deb yuritiladi.

Zehndagi idrok quvvatlarini “havossi botin” yoki “havossi botiniy” deb ataganlar. “Havossi botiniy” ham besh hisdan iborat. Birinchisi hissi musharak, ikkinchisi xayol, uchinchisi vahm, to‘rtinchisi hofiza, beshinchisi mutasarrifdir. Ba’zilar mutasarrifni “fikir” deb ham ataydilar.

Hissi musharak tashqi hislar bergan ma’lumotni bevosita qabul qiluvchi va jamlovchi quvvatdir. Bu hisda ko‘rish, eshitish, tatish, islash va sezishning natijalari bir yaxlit holga kelgani va u tashqi hislar bilan o‘zidan keyingi ichki hislar o‘rtasida vosita bo‘lgani uchun uni “hissi musharak” deb ataganlar. Hissi musharak tashqi hislarning oxiri va ichki hislarning boshidir. Hissi musharak hovuz yoki dengizga, tashqi hislar esa shu hovuzga kelib qo‘shiladigan ariqlarga yoki dengizga quyiladigan soylarga o‘xshatiladi.

Xayol esa tashqi hislar bilan idrok qilingan narsalarni ular yo‘q paytida ko‘z oldiga keltirish quvvatidir.

Xayolni hissi musharakning xazinasida deydlar, chunki xayolda his qilingan narsalarning suvrati to‘planib boradi. Xayolni yana yozuvchiga ham o‘xshatadilar. Bunda



yo‘zuvchining ko‘rgan narsalarini yozib qo‘yib, yozuv orqali o‘sha narsalarni o‘zgaga ko‘rsatishi nazarda tutiladi. Shunga binoan xayol suvrat, ya’ni shakl orqali ma’noni, ya’ni mazmunni idrok qiluvchi quvvat deb tushuniladi. O‘zgacha qilib aytganda, xayol mavjudotning zehnda hosil bo‘lgan suvrat orqali ularning o‘zini kishi ongida gavdalandiradi.

Vahm ko‘rilgan, ko‘rilmagan mavjud yoki nomavjud narsalarni to‘g‘ri va noto‘g‘ri ravishda zehnda gavdalandiradigan kuchdir. Masalan, vahm kishining ko‘z oldiga yuzlab quyoshni,

yoki lazatga intiluvchi kuchdir. Insonda hayvon, o‘simlik va ma’dan nafsari ham bor, hayvonda inson nafs yo‘q, lekin o‘simlik va ma’dan nafs bor. O‘simlikda inson va hayvon nafsari yo‘q, ammo ma’dan nafs bor. Jamodda, ya’ni anorganik jismlarda inson, hayvon va o‘rish nafsari yo‘q bo‘lib, faqat ma’dan nafs bor. Boshqacha qilib aytganda, o‘smaydigan va jonsiz mavjudotda uning jismni saqlab turuvchi quvvatlariga bor. O‘sadigan mavjudotda, ya’ni o‘simliklarda esa ularning jismni saqlovchi quvvatlar va o‘stiruvchi quvvatlar ham bor. Tirik mavjudot, ya’ni hayvonlarda esa ham ularning jismni saqlovchi, ham o‘ishini amalga oshiruvchi, uning tirikligini, ya’ni his qilib ixtiyoriy harakat qilishini ta’minlovchi quvvatlar bor.

Insonda esa bularning hammasi mavjud, undan tashqari, faqat uning o‘ziga xos quvvatlari ham bor. Bu tafakkur va nutqqa oid quvvatlar bo‘lib, buni “nafs insoniy” va “nafs notiq” deb ataganlar. Nafs insoniy his qilib bilishdan tashqari o‘ylab bilish va o‘ylab topish qobiliyatiga ega. Mana shu qobiliyatga aql deyiladi. Shunday qilib, insonda boshqa mavjudotda bor quvvatlar, shuningdek, faqat insonga xos “zokira” yoki “mutafakkira” deb atalgan fikrlash quvvati va nutq quvvati ham bor ekan. Aql va nutq bosharga berilgan sharaflari imtiyoz hisoblanadi va insonga uning shu jihatini nazarga olib, “ashraf ul-maxluqot”, ya’ni maxluqlarning eng sharaflisi degan laqab berilgan.

Shu o‘rinda “maxluq” so‘ziga izoh berib o‘tishga to‘g‘ri keladi, chunki “maxluq” so‘zi ba’zi kishilarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Buning sababi oddiy so‘zlashuvda mazkur so‘zning ko‘proq hayvonlarga nisbatan ishlatilishidir. Adabiy tilda esa u insonga nisbatan ham ijobiy ma’noda ishlatiladi. Chunki bu so‘zning hech qanday tahqir ma’nosi yo‘q. Uning lug‘aviy ma’nosi yaratilgan va yaralgan bo‘lib, “mavjud” so‘zining ma’nodoshidir. Lekin “mavjud” so‘zi azaliy narsalarga nisbatan ham qo‘llanadi, “maxluq” so‘zi avval bo‘lmay, keyin vujudga kelgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. “Maxluq”ni “mavjud” deyish mumkin. Ammo mavjudning hammasi ham maxluq emas. Shunday qilib, mavjud bor narsa va maxluq yaratilgan mavjud degani. Mana shuning uchun oqilu fashih ota-bobolarimiz insonni aql va nutq e’tibori bilan eng sharaflil maxluq deb ataganlar. Mutafakkir shoirimiz Navoiy o‘zining lingvistik asari “Muhokamat ul-lug‘atayn”ni “Alhamdu lillazi mayyazal-insona min soyiril-maxluqot bi sharafin-nutq” yoki zokira deb, agar vahimga bo‘ysunsa, uni “mutaxayyila” deb ataydilar. Mutafakkira faqat insonga xos bo‘lib, u nafs insoniy yoki nafs notiq tushunchasiga aloqador. Nafs hayvoniy mazkur beshta ichki va beshta tashqi hisdan tashqari yana “g‘azab” va “shahvat” deb atalgan ikki quvvatni o‘z ichiga oladi. “G‘azab” zararni daf qilish yoki o‘zgaga ustun kelish uchun kerak bo‘lgan harakatni vujudga keltiruvchi kuchdir.

“Shahvat” so‘zining lug‘aviy ma’nosi istak bo‘lib, istilohiy ma’nosi hayvonni biror manfaat

biladilar. Bulardan yerdagi hayotga bevosita aloqadori falaklarning eng quyisi — falak ul-qamar, oy falagi hisoblanadi va uning nafsiga “vohib us-suvrat”, suvrat bag‘ishlovchi, ya’ni shakllantiruvchi degan laqab berilgan. Bundan fazodan kelgan nurlarning yerdagi mavjudot va hayot shaklini olishi tushuniladi.

“Jismi kull”, ya’ni umumiy jism “falak ul-aflok”, ya’ni falaklar falagi, “falaki atlas” va “arsh” degan nomlarga ega bo‘lgan eng yuqori — to‘qqizinchi falakning nafs “nafs kull” ham deyiladi va ba’zan “nafs kull” deganda o‘sha falakning o‘zi ham tushuniladi.

Mumtoz adabiyotda ko‘p ishlatiladigan va nafsning axlohiy jihati bilan bog‘liq bir qancha istilohiy so‘z va iboralar bor. Endi shulardan ba’zilari bilan tanishamiz.

Nafsi mazkur jihatdan muxtasar qilib, uch yoki to‘rt va mufassal qilib yetti turga bo‘lganlar. Uch turga bo‘lganda birini “nafs ammora”, ikkinchisini “nafs lavvoma” va uchinchisini “nafs mutmainna” deb ataganlar. “Uch nafs” yoxud “nufusi salosa” deganda nafsning mana shu uch turi, aniqroq qilib aytganda, axloqiy darajasi tushuniladi. To‘rtga bo‘lganda mazkur uchtaga “nafs mulhama” degani qo‘shiladi. Yetti turga bo‘lganda mana shu to‘rttaga yana uchtagi qo‘shiladi va bular “nafs rozuya”, “nafs marziya” va “nafs komila” deb ataladi.

“Nafs ammora”ning lug‘aviy ma’nosi doim buyruq berib turuvchi nafsoniy kuch bo‘lib, bu ibora faqat nafs buyrug‘i bilan ish qiluvchi, shaxsiy manfaat yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan kishilarning nafsiga nisbatan qo‘llanadi. Bu nafs insonlarni o‘g‘irlik, zo‘ravonlik, buzquqlik va ichkilikparastlikka olib boradi va kishini turli balolarga giriftor qiladi. Achchiqlanish, o‘zini katta olish, o‘zgalardan ustun kelishga harakat qilish, o‘chakishish, kek saqlash, birovni ko‘rolmaslik, qurumsoliq, janjalkashlik, birovlarning orqasidan gapirish kabi manfiy xislatlar nafs ammoraing amaliy belgilari hisoblanadi.

Kishi bilib yoki bilmasdan nafs faomonida bo‘lishi mumkin. Bola esi kirgunga qadar bilmasdan nafsga bo‘ysunadi. Bolaning oqibatini o‘ylagan va o‘zlari yaxshi tarbiya olgan otanonalar, og‘a va egachilar uni boshdan boshlab yig‘laganiga va boshqa o‘jarliklariga qaramasdan, nafsning ammoralik xususiyatini yo‘qligi o‘rgatib boradilar. Natijada bola o‘z nafsiga mag‘lub bo‘lmagan, undan g‘olib kishi bo‘lib yetishadi. Ba’zan tarbiyaning yo‘qligi yoki noto‘g‘riligi tufayli bola nafsiga mag‘lub bo‘lib o‘sadi va yosh jihatidan qariganda ham nafs jihatidan go‘dakligicha qoladi. Katta bo‘lganda faqat nafs buyrug‘i bilan bo‘ladigan harakatning shakli o‘zgaradi. Masalan, mavqiron yigit yoki qiz, mo‘ysafid chol yoki kampir birovning narsasini o‘zlashtirish uchun o‘zini yerga otib, tepinib yig‘lamaydi, balki kuch yoki turli makru hiylalarni ishga soladi. Bular o‘zlarining nafs qiliga aylanganliklarni bilmaydilar va o‘zlarini g‘oliblar qatoriga qo‘shadilar.

Bila turib nafsga bo‘ysunish esa irodasizlik tufayli bo‘ladi. Bilmasdan nafs amriga bo‘ysunuvchi kishining nafsini ba’zan “nafs bahima” deb ham ataydilar. “Bahima” chorva degani.

Urishqoq, o‘zgalarning narsasini tortib yoki so‘roqsiz o‘zlashtiradigan, chekishdan o‘zini tiyolmaydigan maktab bolalari, bo‘kkuncha ovqat yeydigan, ichkilikka berilgan, o‘zgalarni norozi qilib, aldb tirikchilik qiladigan katta kishilar, amalni suiste’mol qiluvchi amaldorlar, o‘z xalqi va o‘zga xalqlarni talovchi podshohlar, butun olamni egallashga harakat qiluvchi imperialistlarning nafs “nafs ammora” bo‘lib, mazkur shaxslar oqibatda o‘z nafsilarining qurboni bo‘ladilar.

Alibek RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori,
akademik

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
34751 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 21:40